

M.Yu.Ayupova, M.P.Xamidova

Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi

Ma'ruzalar matni

masalalarini qamrab olgan bo'lib, bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, o'yinga o'rgatish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, tasviriy faoliyatga o'rgatish kabi masalalar ochib berilgan.

Ma'ruza matni pedagogika oliygohlarining defektologiya fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan. Undan maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining defektologlari, tarbiyachilari qam foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

Defektologiya kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

D.A.Nurkeldieva

RTM Maxsus ta'lim bo'limi mudiri, dotsent, pedagogika fanlari nomzodi

R.Sh.Shomaxmudova

So'z boshi

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maxsus ta'lim kontseptsiyasi» talablaridan kelib chiqqan qolda nogiron bolalarni o'qitish, ijtimoiy qayotga moslashtirish qamda ularni maktab ta'limiga tayyorlash muammosi respublikamizda ilmiy nazariy, amaliy metodik jihatdan etarli darajada ishlanmaganligi afsuslanarlidir.

Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi fanining nazariy, didaktik asoslarini aniqlash, bilish faolligini oshirish asosida muloqot qilish jarayonidagi buzilishlarni bartaraf qilish qamda maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlashga qaratilgan korreksion pedagogik usullarni ishlab chiqish maxsus pedagogika oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga ta'lim berish jarayoninin takomillashtirish bo'lajak pedagogning ilmiy va uslubiy ta'minlanganligiga boqliq bo'ladi.

Ma'ruza matnida mazkur kursning asosiy bo'limlarining nazariy va uslubiy masalalari yoritilgan.

Ma'ruza matnida ushbu masalalar yoritilgan:

maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini o'stirish;

maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni tevarak atrof bilan tanishtirish;

maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'yinga o'rgatish;

elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish;

maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish.

Bu ma'ruza matni talabalarga nafaqat o'qish davrida, balki bolalar boqchasida mashqulotlar o'tkazishda qam yordam beradi.

I BOB Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini o'zlashtirish

1 § Nutq o'zlashtirish kursining mazmuni va vazifalari

Reja

1. Nutq o'zlashtirish kursining mazmuni
2. Nutq o'zlashtirish kursining vazifalari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Axmedova.X.A., Razbaeva E.M. Nutq o'zlashtirish metodikasi.

Voproso` formirovaniya rechi anomalno`x detey doshkolnogo vozrasta. Sbornik nauchno`x trudov. Moskva. 1982 g.

Borodich A.M. Metodika razvitiya rechi detey. Moskva. Prosveshenie 1981 g.

Bugungi kunda O'zbekistonda maxsus ta'limga o'zgartirishlar kiritilishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, maxsus uyushtirilgan ta'lim-tarbiya orqali aqli zaif bolalarning nutqini o'zlashtirish, ularni ijtimoiy qayotga moslashtirish, faollashtirish imkoniyatini yaratadi.

Aqli zaif bola nutqini egallashning o'ziga xosliklarini tekshirish, ular bilan ishlash mazmuni va usullarini aynan maktabgacha yoshda, ya'ni nutqini egallash uchun eng maqul bo'lgan davrda o'rganish muqimdir.

Aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklar ularning boqlanishli nutqini shakllantirishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Materialning ma'nosini anglash qiyinchiliklari, qodisalarining mantiqini tushuna olmaslik vaqt qaqidagi tasavvurlarning etishmasligi, mavzudan chalgib ketish, shuningdek, tevarak-atrofdagi predmet va qodisalar qaqidagi etarli ma'lumotga ega emasliklari oqibatida ularning so'z boyliklari kambaqallashadi va muloqotga kirishishni qiyinlashtiradi.

Umumiy va maxsus pedagogikadagi mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, me'yorida rivojlanayotgan bolalarning kamolot bosqichi davrlarini, nuqsonga ega bo'lgan tengdoshlari qam, albatta bosib o'tadilar, lekin bu jarayonlar ularda kechikibroq kechadi. Bunga aqli zaif bolalarning bosh miyasining organik jaroqatlanishi natijasida bilish faoliyatining turqun buzilishi sabab bo'ladi. Bu qolat aqli zaif bolaning nutqiga qam o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bolalar nutqining fonetik tomonidan rivojlanishi sezilarli darajada orqada qoladi, nutq ma'no tomonidan o'ziga xos shakllanadi, gaplar tuzishda grammatik jiqatdan xatolarga yo'l qo'yadilar.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining oldida bolalar nutqini o'zlashtirish vazifasi turadi. Bunda aqli zaif bolalarga o'z fikrini, istak-orzusini, qissiyotini aniq ifoda etish, ona tilidan kishilar bilan aloqa o'rnatishda, qayotga o'rganish jarayonida foydalanishga o'rgatish, aqliy jiqatdan kamchiliklarini bartaraf etish, ijtimoiy qayotga moslashtirish, qamda yordamchi maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Defektolog bolalar nutqini atrof qayot bilan, oilaviy turmush, bolalar boqchasining qayoti bilan, mamlakatimizning ijtimoiy qayotidagi voqea va qodisalar, o'zbek xalqining meqnati, jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish asosida o'zlashtirib boradi.

Maxsus usullar yordamida bolalarni faqat lozim bo'lgan so'zlarni ma'nosini tushuntiribgina qolmasdan, balki undan o'z nutqlarida faol qo'llashga o'rgatib boriladi.

Bilish faoliyatining qolati, atrofdagilar bilan bolaning muloqotga kirishish imkoniyati, odob-aqloq normalarini o'zlashtirish, ijtimoiy adaptatsiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga boqliq. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash tizimining asosiy vazifasi - ularning nutqini rivojlantirish yuzasidan ishlash qisoblanadi.

Maxsus bolalar boqchasining ta'lim va tarbiya jarayonida aqli zaif bolalar nutq o'stirish bo'yicha quyidagi bilim ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi: Nutq o'stirish kursi aqli zaif bolalarni ma'lum bilim va malakalarni o'zlashtirib olishlarinigina emas, balki idroq xotira, tafakkur, tasavvur kabi bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni qam nazarda tutadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan ish ularga aqliy faoliyatining muqim usullarini o'rgatish, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Bunda korreksion-pedagogik ishning aqamiyati muqimdir. Korreksion-pedagogik ishda aqli zaif bolalarning yoshi, psixik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, ona tilining o'ziga xos tomonlarini qisobga olgan qolda nutqini o'stirishga qaratilgan maxsus usullardan foydalanish va ularni qayotga moslashtirish imkoniyatini ta'minlaydi. Maxsus tashkil qilingan mashqulotlar tizimi negizidagina maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqining rivojlanishiga erishish mumkin.

2 § Maxsus bolalar boqchasida tovush madaniyatini tarbiyalash ishlarini tashkil etish.

Reja

Maxsus bolalar boqchasida tovush madaniyatini

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda fonematik idrokini shakllantirish

Artikulyatsiya va burro gapirishni (diktsiyani) tarbiyalash

Ritm, sur'atni tarbiyalash.

Ovozni tarbiyalash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Axmedova.X.A., Razbaeva E.M. Nutq o'stirish metodikasi.

Voproso` formirovaniya rechi anomalno`x detey doshkolnogo vozrasta. Sbornik nauchno`x trudov. Moskva. 1982 g.

Borodich A.M. Metodika razvitiya rechi detey. Moskva. Prosveshenie 1981 g.

Nutqning tovush madaniyatiga doir bir qancha vazifalarni: tovush talaffuzi, sur'ati, diktsiya, tasviriylilik va boshqalarni amalga oshirishdagi asosiy yo'l ishning frontal formasidir. Bundan bolalar boqchasining qamma guruqlarida foydalaniladi. Bu ish avvalo mashqulot formasida amalga oshiriladi va unga qar xil mazmundagi mashqlar kiritiladi.

Tovush talaffuzi, nutqda nafas olish, eshitish mashqlari qar kuni olib boriladi. Ba'zi mashqlar nutq o'stirishga oid boshqa mashqulotlar jumlasiga kiritiladi.

Tovushlarni mustaqkamlash mashqlarini boshqa mashqulotlarga qo'shib olib borib, uning tarkibiy elementi yoki maxsus qismi sifatida kiritish mumkin. Masalan: mashqulotlarning birinchi qismida «qo'qirchoqni uxlatamiz» degan didaktik o'yin o'ynalsa, ikkinchi qismida eshitish idrokini o'stiradigan mashqlar bajariladi. «Ovozidan top» snomli o'yin o'ynaladi (4-5 daqiqa)

eshitish nutqini, diqqat bilan eshitishni, nafas olishni, nutq apparatining qarakatini rivojlantiruvchi mashqlar ertalabki, kechki soatlarda, sayr vaqtlarida o'tkaziladi.

O'rta guruqda qiyin tovushlarni talaffuz qilishga o'rganish maxsus mashqulotlari bir necha qismdan iborat, bir mazmunga birlashgan qolda tuzib o'tkazish yaxshi natija beradi. Masalan: mashqulotlarning birinchi qismida bolalar oldiga o'quv vazifasi qo'yiladi. - sh tovushni aytishga o'rgatish: bunda tovush artikulyatsiyasi ko'rsatiladi, tushuntiriladi va bolalarga mashq qildiriladi. mashqulotning ikkinchi qismida esa bolalar shu tovushning talaffuzini so'zlarda (shamol, shaqar, eshiq mushuq bosh, tosh, yo'ldosh) mashq qiladilar. Bu qism didaktik o'yin, dramalashtirilgan qikoya, instsenirovka shaklida berilishi qam mumkin.

Eshituv idrokini shakllantirish.

Nutqning tovush tomonini o'zlashtirishda eshitish boshqaruvchi analizator qisoblanadi. Fonematik eshituvning rivojlanishi bolaning ona tilidagi tovushlarni, ayniqsa, so'zning tovush tizimini tez va to'qri o'zlashtirib olishlarida muqim aqamiyat kasb etadi. So'zning tovush tarkibini to'qri idrok qilish uni to'qri eslab qolishning asosiy omillaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda esa fonematik idrok kech shakllanadi. Bolalar atrofdagi odamlar nutqidagi tovushlarni farqlay olmaydilar, yangi so'zlarni o'zlashtira olmaydilar, artikulyatsion jiqatdan o'xshash tovushlarni yaxshi ajrata olmaydilar. Fonematik idrokning yaxshi shakllanmaganligi bir tovushni ikkinchi tovushga almashtirishga, so'zning tovush tarkibini analiz qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Maxsus tashkil qilingan mashqulotlarda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fonematik idrokini shakllantirishda tovushlarni aniqlash, so'zdagi tovushlarni ajratish, sonini, o'rnini aniqlash ishlarini olib borish lozim.

Eshituv idroki bolada erta rivojlanadi. 2-3 xaftalik me'yorda rivojlanayotgan bolada nutqqa, ovozga nisbatan ba'zi bir terma reaksiya boshlanadi.; 5-6 oylarda u intonatsiyaga, keyinchalik nutqning ritmiga e'tibor beradi. 2 yoshga etganda ona tilidagi qamma tovushlarni eshitadi va uni bir-biridan ajrata oladi. 2 yashar bolada eshitish nutqi tarkib topgan deb qisoblash mumkin, chunki u ona tilidagi qamma tovushlarni ajratadi, eshitish nutqining bunday darajada bo'lishi nutq orqali amaliy aloqa qilish uchun etarlidir.

Tovushlarni analiz qilish yoki fonematik idrok qilish, so'zda qaysi tovush eshitilganligini va miqdorini aniqlash qobiliyati tekshirish maqsadida qamma yosh guruqlarida eshituv idrokini tarkib toptirish ishi olib boriladi.

Eshitish diqqatini rivojlantirishda didaktik o'yinlar muqim aqamiyatga ega. Kichik guruqlarda eshituv idrokini tarkib toptirish mashqulotlarida muzika asboblari, ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardan foydalaniladi. Ular vositasida bolalar ovozining kuchi va xarakterini ajratishni o'rganadilar. Nutq va so'zdagi tovushlarni idrok qilish va yaxshi tushunish uchun eshitish nutqini rivojlantiruvchi o'yinlar, masaln: «Men nima dedim, top» didaktik o'yini o'tkaziladi.

Kichik guruqlarda bu o'yin dastlab ko'rsatma materiallar bilan o'tkaziladi. Defektolog bolalar oldida turgan o'yinchoqlarning nomini sekin aytadi va bolalarga qiyin bo'lmagan topshiriq beriladi. («Dilbar qo'qirchoqni karavotga yotqiz», «Kosimjon bayroqchani vazaga qo'y»). Defektolog bu topshiriqlarni bolalarga qarab turib, bu esa bolalarni aytilgan so'zlarning artikulyatsiyasini ko'rib, tez topishlariga yordam beradi.6Bir necha takrorlanishdan so'ng o'yin

topshiriqi murakkablashtiriladi. Defektolog so'zni bolalarning orqasida turib talaffuz etadi, topshiriq bir marta aytiladi. 4-5 bola chiqib nima eshitganlarini aytadi, so'ng kim to'qri topganini aniqlanadi. Katta guruqlarda bu o'yin variantlari ancha murakkablashtirib o'kaziladi.

Defektolog bolalarga eshinishi jiqatidan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zni topishlarini taklif qiladi. (Masalan: ko'k-ko'p, yil-yo'l, suv-sut, tiz-tis, tuz-tus) «Men nima dedim, top» o'yini 3-7 daqiqa davom etadi.

Ovoz sur'atini farq qilish uchun turli variantlardagi o'yinlardan foydalaniladi. Masalan: «Top-chi, kim chaqirdiq» degan o'yinda bolalar o'rtoqlarini ovozlaridan topadilar. Bolalarga qanday chaqirganligini (sekin, qattiq, tez, muloyim) aniqlash topshiriqi beriladi.

Defektolog o'yinda qo'llaniladigan so'zlarni oldindan tanlashi lozim. Tanlangan so'zlarning mazmuni bolalarga tanish bo'lishi, birinchi navbatda tanlangan so'zlar tovush tarkibi jiqatidan qiyin bo'lmasligi, so'ng ovoz chiqarish (eshitish) jiqatdan oson. Lekin mazmuni qar xil bo'lishi lozim. (Masalan: suv-sut, tiz-tuz).

Eshituv diqqatini rivojlantirish bo'yicha «O'yinchoqni top» o'yinini o'tkazish mumkin.

Tovushning kuchi bilan bola o'yinchoq qaysi bolaning orqasida ekanligini topib oladi. O'yinchoq topilgandan so'ng, o'yin qayta boshlanadi.

Nutqda nafas olib nafas chiqarishni rivojlantirish.

Nafas olish tovush chiqarish va nutq bilan maqkam boqlangan. Nafas olish 2 xil bo'ladi: nutqsiz va nutqli.

Nutqsiz nafas o'z-o'zidan chiqadi. Bola nafas oladi va chiqaradi. Aqlli zaif maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqli nafas olish o'ziga xos xususiyatlariga egadir. Bu xususiyatlar avvalo o'pkaning kichikligi va nafas muskullarining bo'shligiga boqliqdir, bolalar nafasini chuqur emas, shuning uchun ular tez, keskin ko'p vaqt shovqinli nafas olib chiqaradilar, elkalari keskin ko'tariladi, ularda qar bir so'z oldidan, o'rtasidan nafas olish, nafas olaturib so'zlash kabi xollar uchraydi.

Nutqi tezlashgan bola entikadi, so'zning jumlaning oxirini yamlab yuboradi. Muskullarning zaifligidan ko'pchilik bolalarda gavdaning qolati noto'qri: bosh pastga egilgan, kiftlar oldinga chiqqan ko'krak ichiga kirib ketgan bo'ladi.

Defektologning vazifasi bolani nutq jarayonida to'qri nafas olishga o'rgatish va nutq davomida nafas olishda uchraydigan nuqsonlarni yo'qotib borishdir. Nutqsiz va nutqda nafas olish bir-biridan farq qiladi. Nutqsiz nafas olishda nafas olish bilan chiqarish vaqti barobar, tartibli navbatlashib turadi. Nafas burun orqali olinadi. Nutqda nafas olganda nafas olish vaqt jiqatidan tez, nafas chiqarish nafas olishga qaraganda birmuncha uzun bo'ladi. Nafas qam oqiz qam burun orqali olinadi. Nutqda olishning eng yaxshi turi diafragmali, quyi qovurqa yordamida nafas olishdir. (nafas olganda diafragma pastga tushadi va pastga qovurqa ikki tomonga kengayadi, shuning uchun kiftlar ko'tarilmaydi).

Bolada avvalo tinch, shovqinsiz, kiftni ko'tarmay nafas olishni rivojlantirish lozim. Nutq vaqtida uzoq nafas chiqarish bolaning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Kichik guruqlarda bola nafas chiqarish vaqtida 1-2 so'zdan iborat jumlaning, o'rta va katta guruqda bola 3-4 so'zdan iborat jumlaning talaffuz etishi lozim.

Nutqda nafas olishni rivojlantirish uchun bola yoshiga mos nafas oladigan o'yin va mashqlardan foydalanishi zarur.

quyidagi nafas mashqlari o'tkaziladi: 7paxtaga puflash, yonib turgan shamni

bir nafas chiqarishda o'chirish, issiq choyni puflash, olovni o'chirish.

Nutqiy nafasni takomillashtirish uchun quyidagi nafas – ovoz mashqlari taklif qilinadi: gulni qidlash va «oq» deyish, qo'llarni isitish, sovun pufagini ishirish, «yiqlash», «shamol esyapti» kabilarga taqlid qilish.

Kichik guruqlarda bolalarga juda yoqadigan sovun ko'pigini uchirish, par, yupqa, rangli qoqozlarni puflab uchirish o'yinlari o'tkaziladi. Bunday o'yinlarni o'tkazgan vaqda bolalarni nafas olganda elka qismlarini ko'tarib yubormasliklariga e'tibor berish lozim. Bunday nafas oladigan o'yinlarni uch minutdan ortiq o'tkazmaslik va o'yin vaqtida dam berib borishga e'tibor berib borish kerak.

Katta guruqlarda qo'llarni oqista yuqoriga-elka barobarida ko'tarish - nafas olish, sekin-asta qo'llarni pastga tushirib s-s-s deb nafas chiqarish mashqlari o'tkaziladi. Bolalar s-s-s-s tovushini to defektolog to'xtatgunga qadar cho'zib aytadilar.

Artikulyatsiya va burro gapirishni (diktsiyani) tarbiyalash.

Artikulyatsiya tovushlarni aniq qosil qilish uchun nutq apparatini to'qri qolatda turish va ishlatish muqimdir. Diktsiya esa so'zlashganda va ashula aytayotgan so'zlarni aniq tushunarli talaffuz etishdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarda nutqning noaniqligi, labning bo'shashi, tilning sust erinchoq qarakat qilishi, pastki jaqning kam qarakatlanishi natijasida oqizning yomon ochilishi kabi qollar uchrab turadi. Bularning sababi artikulyatsiya apparatining lab, til, pastki jaqning sust va etarli qarakatlanmasligidir.

To'qri artikulyatsiya va qammadan avval unli tovushlarni to'qri talaffuz etish so'zlarni aniq talaffuz etishni ta'minlaydi.

Defektologning vazifasi aqli zaif bolalarda nutq a'zolarining qarakatini rivojlantirish yo'li bilan diktsiyani tarbiyalashdir.

Artikulyatsiya va diktsiyani tarbiyalashga yordam beradigan asosiy vositalardan biri bolalarning tovushlarga taqlid qilib o'ynaladigan o'yinlaridir. Bu o'yinlarda faqat artikulyatsiya va diktsiyagina emas, balki umumiy nutk malakasi: sur'at, ritm, ovoz qam tarbiyalanadi. Bu o'yinlar jarayonida defektolog tovushlarni ko'p talaffuz etishni ko'rsatadi, bolalar unga taqlid qilish orqali o'z nutq a'zolarini mashq qildiradilar.

Artikulyatsion apparatlarni tovushlarni tasdiq qilish shaklida mashq qildirish uchun turli xildagi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Masalan: «Ajoyib xaltacha» o'yinida tarbiyachi xaltacha ichiga 10-12 ta qayvonlarni tasvirlovchi o'yinchoq soladi, chaqirilgan bola xaltacha ichida biron-bir o'yinchoqni olib uning nomini aytish va u qanday ovoz chiqarishni ovoz bilan ko'rsatish lozim.

«Top-chi, bu nimaq» didaktik o'yinda bolalar tovush taqlidiga qarab qayvonning nomini aytish kerak. Bu o'yinning variantlari juda ko'p. Masalan: kichik guruqlarda bunday o'tkazish mumkin.

Tovushga taqlid qilishda qarakatli o'yinlardan qam foydalaniladi. Masalan: «Poezd» o'yini. Bolalar bu o'yinda poezdning gudok berishga (du-du), qildiraklarining taqirlab yurishiga (taqir-tuqur, taq-taq), to'xtash va yurish oldidan (pish-pish-sh-sh-sh) ovoz chiqarishiga taqlid qilib uni aks ettiradilar. Tovush taqlid qilish qikoya, ertak, she'rlar orqali qam o'tkazilishi mumkin. Defektolog tovushlarga taqlid qiluvchi qisqa didaktik qikoyalalarni tuzish qam mumkin. Masalan: boqqa o'tkazilgan sayr qaqida qikoya qilish mumkin. Bunda bolalar o'zlari eshitgan qushlarning ovozini, barglarning shitirlashini va boshqalarni aks ettiradilar. qikoya davomida bir necha8bor tovushlarga taqlid qilish orqali

bolalar ularni tez o'zlashtirib oladilar.

Tovushlarga taqlid qilish mashqlarini suratlar orqali qam o'tkazish mumkin.

Defektolog engil tez aytishni o'zi yoddan, shoshmasdan, aniq, ravon, tez uchraydigan tovushlarni ajratgan qolda talaffuz etadi. Uni bir necha marta, asta-sekin oqangdor qilib o'qiydi. U bolalar oldiga tez aytishni qanday talaffuz etilishini diqqat bilan eshitish va ko'rib turish, uni aniq, ravon ayta olishga o'rganish kabi vazifalar qo'yadi. So'ng bolalar uni mustaqil ravishda yarim ovoz bilan aytadilar.

Ritm, sur'atni tarbiyalash.

Nutq sur'ati nutqning tezlik darajasidir. Nutq ritmi esa bo'qinlar so'zlarning vaqt jiqatidan bir me'yorda navbatlashib kelishidir.

Shuni aloqida ta'kidlash joizki, maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalar nutqi monoton, intonatsiyalari kambaqal, uruqlarni noto'qri qullash va keraksiz pauzalarni qo'llash bilan xarakterlanadi. Ayrimlarda qo'zqaluvchan oligofrenlarda o'ta tezlashgan nutq kuzatiladi. Impulsiv shoshqaloq, bezovta bo'lgan bu bolalar o'z fikrlarni tashkillashtira olmaydilar va tashqi tuzilishini umuman kuzata olmaydilar. Tormozlangan, uyatchan aqli zaif bolalarda nutq potologik sekinlashgan bo'ladi. Ular past, sekin, xuddi tili zo'rqa xarakterga kelayotgandek so'zlarni cho'zib gapirishadi.

Nutq tempini buzilishi bolani atrofdagilar bilan aloqa boqlashga, ularga qaratilgan nutqni tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aqli zaif bolalarning ifodali gapirishga o'rgatish borasida sistematik yo'naltirilgan ish olib boradi. Shuni sezish mumkinki, aqli zaif bolalar ko'p qolda defektologga taqlid qilishadi. Turli xil ifodalarni qo'llab bolalarda gapirishga qiziqish uyqotadi va chiroyli, aniq gapirishga o'rganadi.

Aqli zaif bolalar nutqning intonatsion tomonini chuqur egallashlari uchun talim jarayonida turli xil metodlardan foydalanadi. Bularga yod olingan she'rni ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, qiyin bo'lmagan ertaklarni saqnalashtirish bir jumlaning o'zini xususiyatiga berilib o'qish (qo'rquv bilan, xursandchilik bilan) va xokozolar.

Maxsus korreksion ish aqli zaif bolalar nutq tempini normallashtirish uchun olib boriladi. Nutq tempi tezlashgan bolalar bilan defektolog ma'lum darajada bosiq, sekinroq gaplashadi.

Agar bolalar nutq tempi keskin sekinlashgan bo'lsa, birinchi navbatda bo'layotgan voqealarga qiziqish uyqotish, aktiv muloqatga kirishish faoliyati shakllantiriladi.

Korreksion ishni amalga oshirish jarayonida bola o'z nutqidagi kamchilikka tanqid bilan qarashga o'rgatish lozim. Ana shundan keyin shu kamchiliklarni bartaraf etishga va xoqish istak bilan xarakter qilishga o'rgatish kerak.

Nutq ritmining buzilishi nafas olishning takomillashmaganligidan, lozim bo'lgan so'zni darqol topa olmaslikdan kelib chiqadi. Bolalarda nutq sur'atini va ritmi to'qri tarkib topish uchun ularning tevarak-atrofdagi kattalar aniq qamda osoyishta so'zlashlari lozim.

Boqcha bolalarida to'qri ritm va sur'atni tarbiyalash uchun tanish she'rlarni doira va chapak sadolari ostida o'qish, ashulali o'yinlarni oqista sur'atda pauza bilan aytib o'ynash, musiqa mashqulotlarida ashula aytish qarakati bilan she'rlar o'qish va boshqa usullardan foydalaniladi.

Ovozni tarbiyalash.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bo'qzi kattalarnikiga qaraganda qisqa,

tovush pardalari ingichka va qisqa, o'pkasi kichkina bo'ladi. Shuning uchun qam ularning ovozlari past kuchsiz, bir oz chinqiroq, nutqi esa bir oqangdir. Defektologning muqim vazifasi bolalar ovozini saqlashdan iborat bo'lib bolalar uchun zararli shovqin-suronga qarshi kurashish, bolalarni sovuq va nam qavoda ashula aytishlariga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ovozni tarbiyalashda turli mashqlardan foydalanishadi.

Ovoz kuchini rivojlanish uchun paychalari ostidagi qavo bosimining darajasiga un paychalarining zichligiga boqliq. Ovoz kuchini o'zgartira bilish - nutqning ifodalilik vositalaridan biridir. Bolani baland ovozda, lekin baqirmasdan, aniq, ovozining kuchini sekin-asta o'zgartargan qolda gapirishiga, baland ovozdan o'rta va sekin ovozga o'tish va aksincha, o'rta ovozdan baland ovozga o'tishga o'rgatish lozim.

Ovoz balandligini o'zgartirish, rivojlantirish nutqning ifodalilik vositalaridan biridir.

Ovoz balandligini rivojlantirish uchun ovoz diapazonini kengaytiruvchi modulyatsiyasini, ya'ni ovoz tembrini rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi.

Ovoz tembri oqiz-burun-qiqildoq rezonatorining faoliyatiga, tuzilishiga va funktsiyasiga boqliq.

Oqiz-burun-qiqildoq rezonatorining barcha qismlari o'zaro muvofiq qolda ishlaganida ovoz jarangli, tekis, aniq, mustaqkam va chidamli bo'ladi.

Ovoz tembri ustida ishlashda quyidagi vazifalar qal qilinadi:

a) ovozning jarangligini qosil qilish;

b) bo'yin va bo'qiz muskullarini bo'shashtirish yo'li bilan tamoqning va ovozning qisilishini yo'qotish;

v) ovoz chiqarish uchun to'siq bo'layotgan qolatlarni yo'qotish;

g) ovozning tekisligi, turqunligini qosil qilish;

d) ovozning chidamliligini qosil qilish, ya'ni ovoz nagruzkasini qancha davom etishdan qat'i jaranglanish sifatini saqlash.

Ovoz kuchi va balandligi jiqatidan individual fiziologik imkoniyatlaridan ishlamasligi kerak.

Ovozdan foydalanish xarakteri va unga baqo berish kishilar bilan aloqa munosabati uchun muqimdir. Chunki ovozning ifodalilik darajasiga qarab odamning ruqiy qolatini aniqlash mumkin.

Ovoz kuchini boshqara olish malakasini va ovoz balandligini rivojlantirish bo'yicha mashqulotlardan namuna keltiramiz.

Ovoz balandligini rivojlantirish.

Ovozni tarbiyalash bolaga sekin va qattiq, past va baland tovush bilan gapirish, o'rtacha ovoz kuchi bilan so'zlashishi, so'zlaganda qisilmaslik ovozni o'zgartira olish (baland va past qila bilish) imkonini beradi, bu esa tasviriy nutqni tarbiyalashda juda muqimdir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar tovush madaniyatini shakllantirishda tovush, so'z talaffuzini, intonatsiya, sur'at, ovoz kuchi va nutqning ta'sirli qamda tasviriy oxangdorligini oshirishga katta aqamiyat berish muqim qisoblanadi. Nutq madaniyatining asosini eshitish nutqi va nutqda nafas olib, nafas chiqarish tashkil qiladi. Bularni egallamasdan nutqni yaxshi egallab bo'lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda tovush madaniyatini shakllantirish qiyinchilik bilan amalga oshadi. Chunki ularda bosh miyaning organik jaroqatlanish natijasida, bilish faoliyatida turqun buzilishlar kuzatiladi.

Bu o'z vaqtida nutqni rivojlantirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar ko'p tovushlarni, ya'ni sirqaluvchi (s, z), shovqinli (sh, j, ch), til orqa (q g, q), chuqur til orqa (q, q, x), sonor (p,r) tovushlarni talaffuz qila olmaydilar yoki noto'qri talaffuz qiladilar. Bunday qolat bola nutqini xarakatga keltiruvchi apparatning sust yoki rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Shuningdek ba'zi bolalar so'zdagi bo'qinlarning joyini o'zgartirib, so'zni noto'qri aytadilar. Masalan, «daqliz – dalxiz», «deraza-dezara». Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda tovushlarni talaffuz qilish qar xildir.

5-6 yashar aqli zaif bolalarning ayirimplari boshqalarga nisbatan nutqni bir muncha yaxshi egallaydi, ba'zilarining nutqini umuman tushunib bo'lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini xarakatga keltiruvchi apparatlarning sust yoki rivojlanmaganligi sababli nutq a'zolarining xarakatchanligini oshirish maqsadida mashqlar olib borilishi lozim. Tovush va so'zlarning toza, aniq talaffuz etilishi artikulyatsiya xarakatining aniqligi qamda kuchiga boqliq. Shuning uchun aqli zaif bolalarda tovushlarni to'qri talaffuz etishni tarkib toptirib borish bilan birga aloqida nutq a'zolarini qarakatga keltiruvchi apparatlarini: lab, til, lunj muskullarini doimiy mashq qildirib borish va jaqning xarakatchanligini o'stirish uchun artikulyatsion mashqlardan foydalaniladi. Masalan,

lab uchun umumiy artikulyatsion mashqlar: labni kulgi qolatiga keltirish, labni cho'chaytirish;

til uchun – tilni yuqori-pastga, o'ng-chapga qaraktlantirish, tilni kengaytirish, ingichka qolga keltirish, tilni kengaytirib pastki, so'ng yuqori lablarni yopish, pastki va yuqorigi tishlarni til bilan aylana qarakat qildirish;

jaq uchun – oqizni ochib, yopish, pastki jaqni o'ngga va chapga fazoviy munosabatni aks ettiruvchi qarakat qildirish;

lunj uchun – lunjni shishtirish, qavoni bir tekis chiqarish, qavoni kuch bilan chiqarish.

Ko'pincha artikulyatsion mashqlar o'yin xarakterida bo'ladi.

O'yinda bolalar kerak bo'lgan so'z va tovushlarni bir necha bor takrorlaydilar.

So'zlarni talaffuz qilish ustida ishlash uchun «Magazin», «Kutubxona» singari didaktik o'yinlardan qam foydalaniladi. «Magazin» o'yinida bolalar boshqaruvchiga, ya'ni sotuvchiga murojaat etib, qar bir so'zni ravon aytishga o'rganadilar.

Bolalarning adabiy til talaffuzini to'qri o'zlashtirishlari va uni takomillashtirishlari uchun defektolog tomonidan juda ko'p kuch sarflanishi lozim.

3 § Maxsus bolalar boqchasida nutq o'stirishga oid ish formalari

REJA

1. Bolalar nutqini o'stirish ish formalari
2. Mashqulotlarni tashkil qilish
3. O'yin, meqnat, maishiy qayot faoliyatlarini tashkil qilish
4. Sayrlarni tashkil qilish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Axmedova.X.A., Razbaeva E.M. Nutq o'rtirish metodikasi.

Voproso` formirovaniya rechi anomalno`x detey doshkolnogo vozrasta. Sbornik nauchno`x trudov. Moskva. 1982 g.

Borodich A.M. Metodika razvitiya rechi detey. Moskva. Prosveshenie 1981 g.

Bolalar nutqini o'rtirish ikki xil ish formasi orqali olib boriladi.

1. Mashqulotlarda ona tiliga o'rgatish.

2. Kundalik qayot davomida, o'yin, meqnat, maishiy faoliyat va sayr vaqtlarida nutq o'rtirishga raqbarlik qilish.

Aqli zaif bolalar bilan nutq o'rtirish mashqulotlarini tizimli ravishda olib borish lozim. Mashqulotlar vaqtida kattalarni diqqat bilan eshitishga vazifalarni bajarishga, savollarga javob berishga, o'zining xarakatlari qaqida aytib berishga va boshqalarga o'rgatib boriladi. Shuning uchun qar bir rejalashtirilgan mashqulotlar faqat o'ziga xos vazifalarnigina emas, balki nutqiy vazifalarni qam qal qiladi.

Nutq o'rtirish bo'yicha maxsus tashkil qilingan mashqulotlarda bolalar tomonidan o'zlashtirilgan amaliy materiallar bir tizimga solinadi. Bolalar muloqot jarayonida so'z boyligida mavjud barcha so'zlardan foydalanishi kerak. Ko'pgina aqli zaif bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligidan tashqari nutqning lokal buzilishlari kuzatiladi. Bu buzilishlar dislaliya, dizartriya, fonetik-fonematik rivojlanmaganliklarida namoyon bo'ladi. Ular maxsus logopedik mashqulotlarni talab etadi. Shuning uchun nutq o'rtirish bo'yicha ishlar aqli zaif bolalar bilan qam frontal, qam individual mashqulotlarda olib boriladi.

Nutq o'rtirish bo'yicha frontal mashqulotlar jadval asosida barcha yosh guruqlarida qaftada 2 marta olib boriladi. Uni o'tkazish uchun guruq ikki guruqchalarga bo'linadi. IV o'quv yilida frontal mashqulotlar barcha guruq bolalari bilan olib boriladi.

Individual logopedik mashqulotlarda qar bir bola qaftada kamida 3 martadan qatnashishi shart. Logopedik tashxisni bolani sinchiklab tekshirgandan keyin defektolog qo'yadi.

Individual korreksion mashqulotlar mazmuni aqli zaif bolaning ruqiy va nutqiy rivojlanishdan kelib chiqib aniqlanadi.

Mashqulot materiallari o'quv yili bo'yicha o'rganilayotgan mavzuni kengaytirish va yangiliklar kiritish asosida murakkablashtirib boriladi. Bunda aqli zaif bolalar tomonidan materialni o'zlashtirish uchun takrorlashga ko'p vaqt talab etilishni qisobga olish kerak.

Bolalar bilan doimo muloqotda bo'ladigan defektolog, tarbiyachi va boshqa xodimlarning nutqi, ularga taqlid qilish uchun namuna, to'qri nutq madaniyatini shakllantirish uchun qisoblanadi.

Aqli zaif bolalar bilan ishlash jarayonida buni qisobga olish muqimdir. Shuning uchun kattalar nutqi to'liq etarli darajada baland, grammatik jiqatdan to'qri bo'lishi kerak.

Bolalar nutqini o'rtirishda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi: tabiiy materiallar bilan ishlash va ularni nomlash (bolalar uchun tanish materiallardan foydalaniladi), buyumlarning tasvirini ko'rsatish, buyumlar bilan xarakatlarni bajarish va ularni nomlash, didaktik 120'yinlar (tanlash, guruqlash, solishtirish,

materialni topish), nutq mashqlar (nutq mashqlarini bajarish), rasm bilan ishlash (predmetli va syujetli), kitob yoki matn ustida ishlash, matn tuzishda o'zlashtirgan nutq vositalaridan foydalanish va qokazolar.

Nutq o'stirish bo'yicha maxsus mashqulotlar defektolog tomonidan o'tkaziladi. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasasida nutq o'stirish bo'yicha kundalik ishlar barcha boqcha xodimlari tomonidan olib boriladi.

Nutq o'stirishning muvaffaqiyati mashq qilishga, nutq tajribasiga boqliq. Mashqulot jarayonida qamma vaqt qam qar bir bolaning nutqini o'stirishga sharoit bo'lmaydi.

Defektolog aqli zaif bolalarda shunday ko'nikma xosil qilishi kerakki, u mashqulotdan tashqari vaqtda qam o'z nutqini o'stirish bilan shuqullansin.

O'yin, meqnat, maishiy qayot faoliyatlarini tashkil qilish orqali defektolog, tarbiyachi bolalarnin nutq aktivligini o'stirib borishi, qar bir bola bilan suqbatlashishi, u o'z nutqida ishlatishi lozim bo'lgan so'zni aytib berishi, bola nutqidagi xatoni tuzatib borishi lozim.

Bolalar muloqotini turli faoliyat ko'rinishlarida tashkil qilish kerakki, ular yangi so'zlarni o'zining faol nutqlarida doimo qo'llash imkoniyatiga ega bo'lsinlar.

Korreksion-pedagogik jarayonda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning o'z-o'ziga xizmati va maishiy xo'jalikdagi meqnatiga katta o'rin ajratiladi. Bu aqli zaif bolalarning ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiyasi rejasida muqim amaliy aqamiyatga ega.

O'z-o'ziga xizmat qilishni shakllantirish, ma'naviyatning barcha soqalarida mustaqillikni oshirish, o'ziga ishonch, xissiy iroda soqalarini va nutqdagi kamchiliklarni korrektsiyalash imkonini beradi. Nutq o'stirish uchun maishiy-ijtimoiy faoliyatning turli usullaridan foydalaniladi. Predmet va xarakatlarni nomlash, ularni tasvirlab berish, predmetning sharoitini aniqlash, predmetlarni taqqoslash, ularning qismlarini aytish, amalga oshirilgan faoliyat maqsullari bo'yicha qisobot berish va boshqalar shular jumlasidandir. Bular natijasida aqli zaif bolalarning nutqi qam rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni psixik va jismoniy jiqatdan rivojlanishida o'yinning aqamiyati kattadir. O'yin vaqtida bola o'z xulqini o'zi boshqarishga, uni o'zi bajarayotgan, o'z zimmasiga olgan rolning qoidalariga bo'ysindirishga, o'z-o'zida sodir bo'layotgan psixik jarayonlarni boshqarishni o'rganib boradilar (u aniq maqsadga qaratilgan qarakatlarni, o'yin syujetiga qarab rivojlanib boradigan fikrlarga muvofiq qarakatlar qilishni, qarakatlarga mos nutqdan foydalanishni va shunga o'xshash ishlarni bajarishni o'rganib oladi).

Sayrlar aqli zaif bolalarga katta quvonch, tabiat quchoqida bo'lish esa lazzat baxsh etadi; sayrlarga bolalar diqqatini mavsum o'zgarishi bilan o'simliklar, qasharotlar, qayvonlar qayotida, qatti-qarakatida, tashqi ko'rinishida yuz beradigan o'zgarishlarga jalb qilish, solishtirib aniqlash, yuz bergan o'zgarishlarni so'z bilan ifodalashga o'rgatish orqali bolalarda bilimga qiziqishni o'yqotadi, sinchikovlikka o'rgatadi, tafakkurini rivojlantiradi, nutqini o'stiradi.

Shunday qilib, defektolog, tarbiyachilar bolalarning kun davomidagi qayotini qar yo'llar bilan tashkil qilgan qolda, ularning nutqini o'stirish muvaffaqiyatli amalga oshirib boriladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida nutq o'stirishning

mazmuninin aytib bering.

Aqli zaif bolalar nutqini o'zlashtirishda qanday vazifalar qal etiladiq Misollar asosida to'ldiring.

Maxsus bolalar boqchasida o'zlashtirishga oid qanday ish formalaridan foydalaniladiq

4 § Maxsus bolalar boqchasida luqat ishi metodikasi.

REJA

Maxsus bolalar boqchasidagi luqat ishning vazifalari

Luqat ishining usullari

Luqat ishini olib borishda surat bilan ishlash.

Bolalarning so'z boyligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanish

Topishmoq bolalar luqatini boyitish, faollashtirish vositasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Axmedova.X.A., Razbaeva E.M. Nutq o'zlashtirish metodikasi.

Voproso` formirovaniya rechi anomalno`x detey doshkolnogo vozrasta. Sbornik nauchno`x trudov. Moskva. 1982 g.

Borodich A.M. Metodika razvitiya rechi detey. Moskva. Prosveshenie 1981 g.

Maxsus bolalar boqchasining ta'lim va tarbiya dasturida bolalarni tevarak-atrof bilan tanitirish va ularni luqatini boyitishga katta o'rin berilgan.

Aqli zaif bolalarning so'z boyligini oshirish maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan bo'lib kelgan.

So'z nutqning eng asosiy xom ashyosidir. Mudomiki shunday ekan, maktabgacha oligofrenpedagogika fanining oldida turgan eng asosiy talablardan biri bolalarni so'zlar xazinasiga olib kirish, bu xazinadan baxramand qilishdir. Bu murakkab vazifani so'z ustida mutasil ish olib bormay turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Aqli zaif bolalar bilan olib borilgan kuzatishlar taqlili shuni ko'rsatadiki, ular predmetlar va qolatlarni bildiruvchi so'zlarning ma'nosini tushunishda qiyinchilik va xatolarga duch keladilar, qayotiy tajribalarida kam uchraydigan predmetlarni qatto ko'rsata olmaydilar.

Shuning uchun maxsus bolalar boqchasida bolalarning faol luqatini ularga notanish va qiyin so'zlar qisobiga boyitish ustida ishlash muqimdir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar luqatini kengaytirish ishi uni qurshab olgan olam bilan tanishtirish asosida olib boriladi.

qar bir insonning faol va passiv luqati bo'ladi.

Faol luqat so'zlovchining faqat tushunibgina qolmay, balki o'z nutqida qo'llaydigan so'zlaridir. Passiv luqat so'zlovchining muayyan tilda tushunadigan so'zlaridir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning passiv so'z boyligi salmoqi faol nutqidan yuqori turadi. Rasmdagi tasvirlarni mazkur toifadagi bolalar ko'rsatib bera oladi, ammo nomlashga aqliy imkoni etmaydi. Faol so'z boyligining kamligi aqli zaif bolalarning atrofdagilar bilan muloqot qilishda qiyinchilik tuqdiradi. Aqli zaif bolalar ba'zi so'zlarning rasmdagi tasvirini aytib beradi, lekin boshqa sharoitda va vaziyatda shu so'zlarning ma'nosini tushunmaydi.

Shu bilan birga, so'z boyligining kamligi tufayli bolalar bir guruq

so'zlardagina foydalanishi natijasida nutqning bir yoqlama, noaniq bo'lishga olib keladi.

Maxsus bolalar boqchasidagi luqat ishning vazifalari quyidagilardan iborat.

a) Bolalar luqatini boyitish — bolalarni yangi va mustaqil o'zlashtirib olishlari uchun qiyin bo'lgan so'zlar bilan reja asosida muntazam ravishda tanishtirib borish demakdir. Bolalarning luqati ularning tevarak-atrofdagi voqealar bilan bevosita tanishishlari asosida, bilish faoliyatlari jarayonida kuzatishlar, ko'zdan kechirish, ekskursiyalar va qokazolar vaqtida boyib boradi. Yangi so'zlarni o'zlashtirib faqat muomala qilishgagina yordam bermay, u bolalarni tafakkurini takomillashtirish vositasi bo'lib qam qisoblanadi. Chunki bu jarayonda bolalar butunni qismlarga bo'lish, aloqida belgilarni bir-biridan farq qilish, taqqoslash, umumlashtirish, bir tizimga solishni o'rganadilar.

b) Bolalar nutqida bo'lgan bor luqatni mustaqkamlash va unga aniqlik kiritish. Bu vazifa bolalarning xususiyatlariga, ularning nutqining taraqqiyot xususiyatlariga muvofiq ravishda ilgari suriladi. Aqli zaif bolalar so'zlarni ko'p marta takrorlashga muqtojdir. Avvalo bolalar uchun qiyin bo'lgan so'zlar ularning xotirasida mustaqkamlash bilan maxsus shuqullanish lozim. Bolalar uchun yangi bo'lgan tovushlarni to'qri talaffuz etilishiga e'tibor berib boriladi. Ko'pincha so'zlarni xotirada mustaqkamlash bilan bir qatorda boshqa vazifalar so'zlarning ma'nosini aniqlash, ularning ma'nosini chuqurlashtirish qam amalga oshiriladi. Bu jarayon butun maktabgacha tarbiya yoshida davom etadi.

So'zlarning ma'nosini aniqlash uchun defektolog aqli zaif bolalar ko'rib turgan narsani ko'rsatish va ularning nomini aniq aytib berish usulidan keng foydalanadi.

v) Bolalarning luqatini faollashtirish maxsus bolalar boqchasidagi luqat ishining eng muqim vazifalardandir. Luqatni faollashtirish nutqda foydalanadigan, mazmuni bolalarga aniq tushunarli bo'lgan so'zlarni ko'paytirishdir.

Turli yosh guruqlarida qilinadigan luqat ishining mazmuni «Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash» dasturida belgilab berilgan. Dasturda luqat ishi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish asosida olib borishni nazarda tutadi. Dasturda bolalarning aktiv luqatiga muayyan talablar qo'yiladi. Tevarak-atrofdagi buyumlar qamda qodisalar qaqidagi bilim va tasavvurlarni chuqurlashtirish asosida bolalarning aktiv luqatiga buyumlar, ularning sifati, qanday materialdan tayyorlanganligini anglatuvchi so'zlarni kiritib boriladi. Luqat ishining mazmuni qar bir yosh guruqida murakkablashtirib boriladi.

Luqat ishining usullari

Luqat ishi — bolalarni tevarak - atrofdagi qayot bilan tanishtirish ishining ajralmas qismi bo'lib, u turli metod va usullar bilan amalga oshiriladi.

Luqat ishida quyidagi usullardan foydalaniladi.

1. Luqat ishining etakchi vositasi o'rgatishdir. O'rgatish mashqulotlari bolalar luqatini boyitishning samarali yo'lidir. Luqat ishi usullari bolalarni tarbiyachi nutqidagi kerakli so'zni aniqlab, uning ma'nosini tushunib, puxta esda saqlab qolishiga shuningdeq u so'zni o'z nutqida ishlatilishiga yordam berishi kerak.

2. Yangi va qiyin so'zni aytib berish bolalar luqatining boyitishnin aktiv usulidir. Yangi so'z aniq, adabiy jiqatdan to'qri qilib bo'qinlarga bo'lmasdan talaffuz etiladi. Nomini aytib berishda buyumning o'zi ko'rsatilib, tushuntirilib beriladi.

3. Tarbiyachi bolalarning yangi so'zlarni eslab qolishlariga erishish uchun takrorlash usulidan foydalanib, mashqulot davomida bir o'zi ayrim

bolalar bilan birgalikda yoki butun guruq bilan qsha so'zlarni bir necha marotaba takrorlashlari mumkin. Yangi so'zni barcha bolalar bilan takrorlash usulidan bolalar boqchasining barcha guruqlarida foydalaniladi. Bu usul bolalarning nutq aktivligini kuchaytiradi, bir bolaga yangi so'zni aytish imkonini beradi.

Luqat ishi uchun ba'zi mashqlar va didaktik o'yinlar qam usul sifatida qullanishi mumkin. Masalan: katta guruqlarda so'z tanlash mashqlaridan foydalaniladi. Buyumlar klassifikatsiyalash, taqqoslash, topishmoq, o'yinlardan katta guruqlarda bolalar luqatini aktivlashtirish uchun foydalaniladi.

Tarbiyachi lugat ishini rejalashtirayotganida bolalar bilan maxsus ishlashni talab etadigan so'zlarni aniqlashi va bu so'zlarni o'rgatish usullarini tanlashi zarur.

Luqat ishini olib borishda surat bilan ishlash.

Bolalar luqatini o'stirishda suratlar muqim aqamiyatga ega. Luqat ishining barcha vazifalarini xal etishda suratdan foydalaniladi.

Bolalar surat yordamida pedagog bevosita ko'rsat a olmaydigan buyumlar, xayvonlar, xodisalar bilan tanishadilar. «Xirmon», «paxta dalasi», «paxta terish mashinasi» kabi yangi so'zlarni bilib oladilar.

Boshqa qollarda esa suratdan bolalarning bilimi va luqatini mustaqkamlash, aniqlashtirish qamda aktivlashtirish vositasi sifatida foydalaniladi. Bunda suratlardan kuzatish, ko'zdan kechirish va ekskursiyalardan keyin foydalaniladi.

Aqli zaif bolalarga mqljallangan suratlar pedagogik jiqatdan qiymatli, qiziqarli va bolalarga tushunarli bo'lishi lozim. Suratning mazmuni maktabgacha yoshidagi bolalarga tarbiya berish vazifalariga mos bo'lishi kerak.

Kichik, o'rta guruqlarda predmetli va syujetli rasmlardan foydalaniladi. Katta va maktabga tayyorlov guruqlarida asosan syujetli suratlardan foydalaniladi, vaqti-vaqti bilan predmetli suratlardan qam foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar diqqatining tarqoqligi sababli mashqulot boshlanmasdan oldin defektolog suratni guruq xonasiga berkitilgan qolda olib kiradi. Surat uchun taglik va uni ko'rsatish uchun tayoqcha tayyorlaydi.

Mashqulot ko'pincha kichikroq muqaddima suqbat tarzida o'tkaziladi. Bu suqbat jarayonida defektolog bolalarni suratning mazmunini tushunishga yaqinlashtiradi. Luqatni faollashtirishda stol ustida ko'riladigan mayda suratlar qam juda muqim. Pedagog mashqulotlar uchun suratlar, illyustratsiyalar, otkritkalar komplektlarini tanlab olishi lozim.

Bolalarning so'z boyligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.

Didaktik o'yinlar aqliy tarbiya berish metodi bo'lib, bu metod vositasida bolalarning diqqat, qotira, kuzatuvchanlik. Topqirlik kabi psixik sifatleri tarkib toptiriladi. Didaktik o'yinlar bolalarning bilimlarini ular uchun oson va qiziqarli formada mustaqkamlash imkonini beradi.

Didaktik o'yin nutqni o'stirishning, luqatni mustaqkamlash va faollashtirishning muqim metodlaridir. qar bir didaktik o'yin o'zining dastur mazmuniga ega u buyumlar qaqidagi bilimlarni mustaqkamlaydi.

Bu o'yin orqali aqli zaif bolalarning qis-tuyqularini rivojlantiriladi. Didaktik o'yinlardan asosan bolalarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi vosita sifatida foydalanish bilan bir qatorda nutqni o'stirish, atrof-muqit bilan, tabiat bilan tanishtirishda keng qo'llaniladi. O'yin shaklida o'tkaziladigan mashqlar esa bolalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi, qiziqtiradi, natijada bolalar o'zlarini qiynamay, majbur qilmay takrorlash lozim bo'lgan so'z yoki qarakatlarni osonlik bilan takrorlaydilar.¹⁶Demak didaktik o'yinlar bolalarning

nutqlarini o'zlashtirishda keng foydalaniladigan ta'limiy vositalardan biri bo'lib qisoblanadi.

Didaktik o'yinlar jarayonida aqli zaif bolalarning so'z boyligini orttirish, tovushlarni to'qri talaffuz etishni mashq qildirish, so'z intonatsiyasini to'qri ifodalay olishga o'rgatish yuzasidan ish olib boriladi.

Didaktik o'yin uchun tanlanadigan material o'zining tashqi ko'rinishi bilan bolalarni qiziqtiradigan, o'yinga jalb etadigan bo'lishi kerak. Tanlangan narsalar mashqulot mazmuniga mos bo'lishi, narsalarning belgilari aniq bo'lishi kerak. Luqat ishi uchun qanday o'yinlardan foydalanish mumkin

Kichik guruqlarda o'tkaziladigan didaktik o'yinlarda asosan turmush luqati, ya'ni bolalarning tevarak-atrofdagi buyumlarning nomlari, sifati va vazifalarini ifodalovchi so'zlar mustaxkamlanadi. Turmush luqatini faollashtirish vazifasi maxsus bolalar boqchasida qam V. I. Tixieva tomonidan yaratilgan qo'qirchoqlar bilan o'tkaziladigan o'yinlarda muvaffaqiyatli qal qilinadi.

«qo'qirchoqni cho'miltirish» o'yini natijasida bolalar ustki va ichki kiyimlarning, cho'miltirish uchun zarur buyumlar (sovun, sochiq)ning nomlarini aniqlaydilar.

«qo'qirchoqni uxlatamiz» o'yinida bolalar ko'qirchoqni yotqizayotib, ko'rpa-yostiqlik nomiga, boqliq so'zlarning (tushak ustini yopib qo'yish, yotqizish) ma'nosini tushunib oladilar.

O'rta guruqlarda turli mazmundagi o'yinlarda o'zlarining turmush luqatlarini (kiyim - kechaq idish - tovoq, tabiatga oid: qayvonlar, o'simliklar, sabzavotlar, mevalar) mustaqkamlaydilar, buyumlarning belgilari sifati, vazifalarini bilib oladilar, buyumlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlaydilar, buyumlarni guruqlar bo'yicha klassifikatsiya qiladilar. (stol, stul, shkaf - mebel)

qo'qirchoqlar bilan o'tkaziladigan turli - tuman o'yinlarda aqli zaif bolalar so'z boyligiga yangi so'zlar kiritiladi va ularning ma'nosini aniqlanadi.

«qo'qirchoqlarni choy bilan meqmon qilamiz» o'yinida tanish buyumlarning vazifalari aniqlanadi: choynak — choy uchun, qanddon -qand uchun, sut idish - sut uchun va qokazo.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar luqatini faollashtirishda «Ajoyib xaltacha» o'yinidan keng foydalaniladi.

Katta guruqlarda buyumlarsiz - oqzaki didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Katta yoshdagi bolalarning oqzaki nutqlarini o'zlashtirishda, erkin so'zlash olish qobiliyatlarini tarbiyalashda, qozir javoblikka o'rgatishda narsalarsiz o'tkaziladigan oqzaki didaktik o'yinlar muqim amaliy aqamiyatga ega. Bunday o'yinlar bolalarning so'z boyligi ancha ortganidan, atrof-muqit qaqida ma'lum darajada bilimga ega bo'lganlaridan keyin o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday o'yinda bolalardan berilgan savollarga javob bera bilishlari talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning psixik rivojlanishidagi nuqsonlar buyumlarsiz oqzaki didaktik o'yinlarini o'tkazishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning so'z boyligi sifat jihatidan taqzil qilinganda, asosan ular tomonidan yo'l qo'yilgan leksik xatolar, ya'ni so'zlarning ma'nosiga ko'ra noto'qri qo'llaganliklari kuzatildi. So'z ma'nosini tushunmagan bola bir so'zni ikkinchi so'z bilan almashtiradi va so'zlarni bir-biri bilan boqlay olmaydi. Leksik ma'nosi jihatidan yaqin predmetning nomi, belgisi va ish-qarakatini bildiruvchi so'zlarni differentsiatsiya qilishda kamchiliklarga yo'l qo'yadilar.

Shuning uchun oqzaki o'yinlar

170'tkazish tabiiy buyumlar bilan bevosita

tanishilgandan keyin rejalashtiriladi, oqzaki o'yinlar tegishli luqatni ancha mustaqamlaydigan mashqlar, buyumli o'yinlar, o'yinchoqlar va suratlar bilan almashtirilib turiladi.

Topishmoq bolalar luqatini boyitish, faollashtirish vositasi. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishda topishmoqlardan keng foydalaniladi Bolalar bilan ishlashda topishmoqlardan foydalanilgan vaqtda ularning tarbiyaviy va pedagogik qiymatini qisobga olish kerak.

Topishmoq ochiq va yashirin shaklda qo'yilgan savoldir. Topishmoq, topish vazifani xal qilish va savolga javob berish yo'lini topish, ya'ni qandaydir fikrlash operatsiyasini bajarish: analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarish demakdir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar topishmoqlar javobini topishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunga aqli zaif bolalarda tafakkur operatsiyalaridan analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish jarayonlarining etarli darajada shakllanmaganligi sabab bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda topishmoqlarni topishga o'rgatish jarayonida kuzatish usulidan foydalanilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Kuzatish-murakkab bilish faoliyati bo'lib, unda idrok tafakkur va nutq ishtirok etadi, barqaror diqqat talab etiladi.

Bolalar qushlarni, xashorotlarni kuzatib, tarbiyachining yordamida qush va xashorotlar o'z inlarini qo'lsiz va asbobsiz quradilar, degan xulosaga keladilar. «qo'li yo'q, lekin ko'ra oladi» (qushcha), degan topishmoqni topishga yordam beradi.

Bolalar umumlashgan xulosa chiqarishlari uchun kuzatishlarda ma'lum bir tizim bo'lishi kerak. Masalan, «qishi bilan yotib, baqorda ariqqa yugurib qoldi».

Topishmoqni topish uchun bolalar iliq baqorgi kunlar boshlanishi bilan qorlarni eriy boshlashi qaqida tasavvurga ega bo'lishlari kerak yoki «Ezda yashil rangda, kuzda sariq rangda topishmogini topishga bolalarning baqorda, ezda daraqtlarni kuzatishlariga yordam beradi. Kuzatish vaqtida o'z taasurotlarni aniq va obrazli so'z bilan ifodalay olishlari juda muqimdir. Sayr va ekskursiyalarda pedagog bolalardan: «Bugun quyosh qandayq Gulzor nimaga o'xshaydiq»- deb so'raydi. Taqqoslash qanchalik mustaqillik kasb etgan bo'lsa, bolalar topishmoqning ma'nosini shunchalik oson payqab oladilar. Agar bolalar buyumlarning belgilarini, so'z va tushunchalarning ma'nosini bilmasalar, topishmoqni topa olmaydilar.

Ba'zan bolalar topishmoqni topolmay, defektolog aytib berishni so'raydilar.

Defektolog topishmoqni bolalarga tushuntirib beradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar bilan birga topishmoqni javobini topadilar. Bolalarni topishmoqni tushunib olishga o'rgatish uchun defektlog qar gal topishmoqni bola qaysi yo'l bilan topganini aniqlashi kerak. Buning uchun bolaga: «Sen qanday topdingq Nimaga shunday qaror qildingq Kabi savollar berishi mumkin. Bunday savollar bolani isbotlash, muqokama qilish vazifani xal qilish jarayonini tushuntirib berishga o'rgatadi. Topishmoq qayvon, narsa va boshqa narsalar qisqa tasvirining namunasi bo'lganligi uchun defektolog bolaga o'z fikrini qisqa qilib ifodalashni o'rgatish vaqtida, o'yinchoqlar, suratlar va buyumlarning qisqa tasvirlarini tuzish paytida topishmoqdan foydalanishi lozim. Didaktik o'yinlarda, suqbatlarda, suratlarini ko'zdan kechirishda topishmoqdan qisqa tasvirlash namunasi sifatida foydalaniladi. Masalan: sabzavotlarni ko'rish va suqbatdan keyin (Bu nimaq Rangi, shakli, mazasi qanaqaq Uni qanday eyiladiq) qisqa badiiy namunasi berib, topishmoq to'qish va keyin 18sabzavotlarning ustini berkitib,

bolalarga ularni xamma topa oladigan qilib tasvirlashni buyurish lozim. Bu ishlar katta guruqlarda olib boriladi. Buning uchun o'tilgan mavzu barcha bolalar uchun tanlangan topishmoqlar o'tilgan mavzuga mos bo'lishi kerak. Bolalarning topishmoqlarni topishlariga erishish uchun bir mashqulotning o'zida turli soqalardan olingan topishmoqlar berilmaydi. Masalan, «Uy qayvonlari» mavzusi o'tilsa, faqat shu mavzuga oid topishmoqlar beriladi. Topishmoqlar tanlashda aqli zaif bolalarning aqliy imkoniyatlarini qisobga olish muqimdir.

Pedagogik ishda topishmoqlardan bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirish nutqini o'stirish ularda qiziqish uygotish va kuzatuvchanlikni kuchaytirish usuli sifatida keng foydalaniladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

Maxsus bolalar boqchasida luqat ishi bo'yicha qanday vazifalar qal etiladiq
Maxsus bolalr boqchasida luqat ishining qanday usullaridan foydalaniladiq
Maxsus bolalar boqchasida luqat ishini olib borishda suratlar bilan ishlash qaqida aytib bering.

Aqli zaif bolalarning so'z boyligini oshirishda didaktik o'yinlarning aqamiyatini ochib bering.

Aqli zaif bolalar luqatini aktivlashtirishda topishmoqlardan qanday foydalaniladiq

5 § Bolalar nutqining gramatik jiqatdan to'qri o'stirish metodikasi.

1. Bolalar nutqining gramatik jiqatdan to'qri shakllantirish
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini gramatik jiqatdan tarkib toptirish vazifalar
3. Nutqni gramatik jiqatdan o'zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklar
4. Grammatik jiqatdan to'qri nutqqa o'rgatish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Axmedova.X.A., Razbaeva E.M. Nutq o'stirish metodikasi.

Borodich A.M. Metodika razvitiya rechi detey. Moskva. Prosveshenie 1981 g.

Efimenko.L.N. Sadovnikov I.N. Formirovanie svyazannoy rechi.

Grammatika ob'ektiv borliqdagi narsa va qodisalarni ifodalamaydi, balki narsa - qamda xodisalarning ifodasi bo'lgan so'zlar orasida nutq jarayonida vujudga keladigan qmumiy munosabatlarni, bir so'z bilan ikkinchi so'zning boqlanishini ifodalaydi.

Bolalar tilning grammatik tuzilishini kattalarga taqlid qilish asosida asta-sekin uzlashtirib boradilar. Grammatika ikki qismdan - morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya so'zlarning tuzilishi va o'zgarishini tekshiradi. Gap, uning grammatik xususiyatlari, so'zlarning o'zaro boqlanish yo'llari esa sintaksisda qrganiladi. Sintaksisning asosiy o'rganish ob'ekti so'z birikmasi va gapdir.

Me'yorda rivojlanayotgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar so'z sostavining bir qismini uzlashtirib olganlaridan 1980'ng kattalarning gapiga taqlid qilib

gapira boshlaydilar va shu yo'l bilan tilning grammatik tuzilishini o'zlashtira boradilar.

Bolalar kattalardan faqat ayrim so'zlarnigina emas, balki so'zlari ma'lum tartibda joylashgan gaplarni qam o'rganadilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola 3 yoshga to'lganda ona tilining grammatik sistemasini tushuna boshlaydi, uni takomillashtira borib, 8 yoshga kirganda ona tilini ancha yaxshi o'zlashtirib oladi.

Bu davrda bola ona tilining murakkab grammatikasini, xatto tildagi juda nozik sintaksis va morfologik qoidalarni o'zlashtirib oladi. Bundan tashqari, ona tilida juda kam uchraydigan ayrim xususiyatlarini o'rganib oladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda esa nutqni asosi bo'lishi grammatik tomonini tekshirish natijalarining taqlili ularda tilning leksik-grammatik tuzilishining etarli shakllanganligini ko'rsatadi. Ular amalda tilning grammatik qoidalarini buzgan qolda qo'llaydilar va nutqda xuddi shunday ifodalaydilar. Aqli zaif bolalarda 5 yoshda so'zlardan ran tuzish jarayoni zaifligi yoki etarli shakllanmaganligi kuzatildi. Tekshirishdan olingan natijalar aqli zaif bolalar 2-3 so'zdan iborat ran tuzish imkoniga ega ekanligini ko'rsatdi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar gapni grammatik jiqatdan to'qri tuzishda qiyinchiliklarga duch keldilar. Noto'qri tuzilgan gaplar orasida tugallanmagan, grammatik jiqatdan shakllanmagan, ma'nosiz, so'zlarni qrnini almashtirish kabi kamchiliklar kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqida ko'plikni anglatadigan so'zlarni noto'qri qo'llash qollari uchrab turadi. Masalan, «Bolalar o'ynashyaptilar» o'rniga «Bolalar o'ynayapti», «qo'llarim muzladi» o'rniga «qo'lim muzladi» deb noto'qri gapiradilar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'zbek tilining grammatik tuzilishini to'qri o'zlashtirishlarida so'zga boy, qar xil grammatik formalarni ishlatib, ravon so'zlaydigan pedagog nutqi muqim aqamiyatga ega. Defektolog maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga uzbek tilining grammatik qurilishini o'rgatish bilan birga ular nutqidagi grammatik xatolarni oldini olish kerak.

Grammatikani fan tariqasida o'rganish keyinroq maktabda amalga oshiriladi. Maktabda bolalar ona tilini qonun qoidalarini o'rganadilar va shu asosda, yozma nutqni o'zlashtirib boradilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini grammatik jiqatdan to'qri tarkib toptirish uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi:

Bolalarning oqzaki nutqidagi grammatik xatolarni tuzatib borish.

Bola nutqini sintaksis jiqatdan takomillashtirib borish, bolani so'z birikmalari bilan tanishtirish, unga yoyiq va murakkab gaplar tuzishni o'rgatish.

Morfologik tartibdagi grammatik xatolarning oldini olish, bolalarga kichik guruqdan boshlab qiyin morfologik kategoriyalarni ishlatishni mashq qildirish.

Pedagogik nutqni grammatik jiqatdan to'qri tarkib toptirish ishining mazmunini aniq bilishi ayniqsa, maxsus o'rgatish usullaridan to'qri foydalana olishi zarur.

Nutqni grammatik jiqatdan o'zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklar

Bola to'qri gapirishga o'rganish uchun kattalardan taqlid qilishga arziydigan va namuna bo'la oladigan nutqni eshitishi lozim. qar bir grammatik forma bola uchun umumlashirilgan ma'lum munosabatni mustaqil ifoda etuvchi signal bo'lib qizmat qiladi. Lekin o'zbek tilida turli-tuman formalar mavjuddir. Masalan, bolalar otlarning kelishiklar bilan turlanishini 20bilmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning oqzaki nutqlarida kelishik qo'shimchalaridan foydalanishni tekshirish natijalari ular qar doim qam o'z nutqlarida kelishik qo'shimchalaridan to'qri foydalana olmasliklarini ko'rsatdi. Chunki so'zlarni kelishikda turlay ololmaydilar. Natijada bunday bolalar suqbatga tortilganda nutqida ko'pincha bosh kelishikni qo'llashadi. Jo'nalish kelishigining qo'shimchasini o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirishadi. Nutqda so'zlarni bir-biriga boqlashda qo'shimchalardan gapning asosiy elementi sifatida foydalana olmaydilar. Ular faqat so'zlarnigina talaffuz qildilar, natijada qo'shimchalar o'zgarishi bilan gapning mazmuni qam o'zgarishini bilmaydilar. Shuning uchun qam kattalar ularnin kelishik qo'shimchalarini qanday ishlatishlarini kuzatib, yo'l qo'ygan xatolarini tuzatib borishlari kerak. Bolaning aktiv luqati boyib, munosabat doirasi kengayishi bilan u yoyiq gaplardan foydalana boshlagandan so'ng, nutqida grammatik xatolarning soni ancha ko'payadi. Chunki bola yangi o'zlashtirgan so'zlarini qamma vaqt qam yangi grammatik formada eslab qola olmaydi, yoyiq, gapdan foydalangan vaqtda uning mazmuni va formasini tekshirib ulguromaydi. Aqli zaif bolalar tuzgan gaplarda so'zlar tarkibining buzilganligi, muayyan so'zlar bilan qo'shimchalarning bir-biriga mos emasligi kabi kamchiliklar kuzatiladi. Gap tuzishdagi xatolar asosan, ularning leksik imkoniyatlarining chegaralanganligi bilan belgilanadi. Aqli zaif bolalar so'z boyligining chegaralanganligi asosan ularning vazifani bajara olmasliq so'zlarni noto'qri tanlash va so'zlar ma'nosini qisobga olmay rap tuzishlarida o'z aksini topadi. Shuning uchun qam bolalarga ona tilini o'zlatirishda umumiy nutq madaniyatini tarkib toptirishda yordam beradigan, grammatik formalarni o'rgatadigan maxsus mashqlar o'tkazish yaxshi natija beradi. Buning uchun bu ish mustaqil bo'lim qilib ajratilib, o'zining mazmuniga ega bo'lishi, muayyan maqsadni ko'zlagan qolda sistemali ravishda o'tkazilishi lozim. Bu vaqtda bolalarning e'tiborini konkret grammatik formalarni o'zlashtirishga jalb qilish lozim.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko'proq quyidagi grammatik formalarda qiynaladilar:

1. Bolalar ko'pincha otlarni kelishiklarda noto'qri turlaydilar. Ular so'zlaganda ko'pincha shunday xatoliklarni uchratish mumkin: Men xolamnikida bordim, boqchada boraman, boqchaga o'yinchoq ko'p, manga ber, mani kitobim, men boqcha bordim.
2. Otlarni sonlar bilan turlanishida, ayniqsa, ko'plik qo'shimchasini noto'qri ishlatadilar: bolalar uy keldi, kapalaklar uchvotdi, gulla ochildi va boshqalar.
3. Bolalar fe'llarni ishlatishda qam xatoliklarga yo'l qo'yadilar, ayrim fe'llarni qisqartirib talaffuz etadilar. Olib kel, olib bor, olib tush yoki olib keldim, olib bordim, olib tushdim o'rniga obke, obor, obtush deydilar yoki "Men boqchaga bormadim" deyish o'rniga "Man bochaga bor yo'q" deydilar.
4. Ba'zan fe'llarning zamon bilan turlanishida qam xatoliklarda yo'l qo'yadilar. ("Men kecha xolamnikiga bordim" deyish o'rniga "Men ertaga xolamnikiga bordim").

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqli zaif nutqidagi grammatik xatolar: Bolalar ona tilining morfologik sistemasini qali yaxshi o'zlashtirmaganliklaridan. Kattalar nutqidagi nuqsonlar ta'siridan.

Pedagogik ishni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan, ya'ni kattalarning bolalar nutqidagi xatolarga e'tibor berib, ularni tuzatib bormasliklaridan, ba'zi ular

nutqidagi nuqsonlarga taqlid qilishlaridan.

Bola nutqining buzilishi sheva ta'siridan kelib chiqadi. Masalan, "koptok-koptov", "choynak-choynay", "soch-choch", "soat-soqat".

Pedagog doimo mashqulotlar davomida va mashqulotdan tashqari vaqtlarda bolalar nutqini nazorat qilib borishi, kun tartibining barcha vaqtlarida aqli zaif bolalar nutqini o'rganishi va ular nutqidagi nuqsonlarni tuzatib borishi lozim. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqining grammatik tuzilishi ustida ishlash jarayonida ularning yosh xususiyatlari va o'zlashtirish imkoniyatlarini qisobga olgan qolda belgilanadi.

Guruqdagi bolalar nutqining grammatik tuzilishi quyidagi sabablarga ko'ra turlicha bo'ladi.

Bolaning umumiy psixologik va jismoniy o'sish qonuniyatlari (Aqli zaif bolalarning bosh miyasining organik jaroxatlanishi natijasida bilish faoliyati, ya'ni psixik jarayonlari turqun buziladi. Bu bolaning jismoniy rivojlanishiga qam o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin).

Artikulyatsion nutq apparatining aqvoli, fonematik eshituvi so'z boyligining qolati. (Aqli zaif bolalar nutq organlarida nuqsonlar bo'lishi, nutq organlari xarakatining sustligi, fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kambaqalligi kuzatiladi.)

Grammatik kategoriyalarni o'zlatirishdagi qiyinchiliklar.

Tevarak atrofdagi kattalar nutqining grammatik jiqatdan qurilish aqvoliga, pedagogik nazoratga boqliq.

Grammatik jiqatdan to'qri nutqqa o'rgatish. Nutqni grammatik jiqatdan to'qri tarkib toptirishning asosiy vositalaridan biri bolalarga maxsus mashqulotlar tashkil qilishdir. qar bir tashkil qilingan frontal va individual mashqulotlarda aqli zaif bolalar nutqidagi nuqsonlarni tuzatib borish imkoni bqladi. Aqli zaif bolalar nutqidagi grammatik xatlarni bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan mashqulotlarda bolalar diqqatini kerakli grammatik formaga qaratadi. So'z, uning o'zgarish, so'zlarning bir-biriga boqlanish yoki jumlar tuzish aqli zaif bolalar bilish faoliyatining imkoniyatini qam oshiradi. Bolalar defektolog yordamida nutqning grammatik tuzilishini o'zlashtirib beradilar. Mashqulotda bolalar diqqati jamlanadi, pedagogning qamma tushuntirish va ko'rsatmalarini eshitadilar, o'rtoqlarining nutqlarini kuzatadilar. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalaridagi mashqulotlarga qo'yiladigan didaktik talablardan biri uning tuzatish, tarbiyalash yo'nalganligidir. Shuning uchun maxsus bolalar boqchasida mashqulotlar jarayonida aqli zaif bolalardagi aqliy qobiliyatlar, nutqdagi nuqsonlarni korrektsiyalash uchun imkoniyatlar yaratiladi. Aqli zaif bolalar qar bir mashqulot mazmunini o'zlashtirib, nutqidagi grammatik kamchliklarni bartaraf etib boradilar. Bu toifadagi bolalar nutqidagi grammatik xatolarni pedagog tomonidan tuzatib boriladi.

qar bir mashqulotda aqli zaif bolalar bilan defektolog quyidagi vazifalarni qal qiladi:

1. Aqli zaif bolalar taqlidchan bqladilar, shuning uchun grammatik jiqatdan to'qri nutqni eshitishlari lozim.

Agar kattalar nutqida nuqsonlar bo'lsa, bolalar qam xuddi shu nutqqa taqlid qiladilar. Bola boqchada uzbek adabiy tilining grammatik normalariga javob beradigan nutqni eshitish muqimdir. Bola nutqini o'sishiga pedagogning nutqi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun

ustida doimo ishlashi va pedagogik maqoratini oshirib borishi zarur.

2. qamisha bolalar nutqining grammatik jihatdan to'qri o'sishiga e'tibor berish va nuqsonlarni tuzatib borishi zarur.

Bu esa bolaning to'qri grammatik formalarni o'zlashtirib olishda muqim, shu bilan birga nuqsonlarini tuzatib borish bolalarning qanday qilganda to'qri gapirish mumkinligini tushunishlariga imkon beradi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar juda katta qiyinchilik bilan va faqat defektologning yordamidagina o'zlashtirgan bilimlarini o'xshash sharoitga ko'chirishni amalga oshirishlari mumkin. Agar defektolog bu bolalarni doimo nutqidagi grammatik xatolarni ko'rsatib, uni tuzatib borib, aqamiyatini tushunarli qilib etkazsagina, bolalar ma'lum muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyati shuki, ular kam qarakat, ruqiy jarayonlari inert qolatda shu sababli ular " bir joyda tqxtab qolishga", tafakkur va qarakatlarida turqunlikka moyil bo'ladilar. Masalan, aqli zaif bolalar ko'plik qo'shimchasini o'zlashtirib olgandan keyin qo'shimchadan o'z nutqlarida noo'rin foydalanadilar. Shuning uchun defektolog doimo bolalar nutqini nazorat qilib turishi va ko'p marta takrorlash va eslatib turishni talab etiladi.

3. Agar biron bir grammatik xato guruqdagi bolalarning nutqiga keng tarqalgan bqlsa, maxsus didaktik o'yin yoki mashqlar o'tkazish kerak.

Agar aniqlangan nuqsonlar individual xarakterga ega bqlsa defektolog uning sababini aniqlashi kerak. Nuqsonlarni tuzatishga ota-onalarini qam jalb qilinadi. Kunt tartibining barcha vaqtlarida bolalar nutqini kuzatadi, diqqatini nuqsonlarni tuzatishga qaratadi. Agar nuqsonlar tipik xususiyatga ega bo'lsa, ularni tuzatish bo'yicha maxsus mashqulotlar o'tkazish yaxshi natija beradi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

Aqli zaif bolalar nutqini grammatik jihatdan o'stirishda qanday vazifalar ustida ish olib boriladiq

Aqli zaif bolalar nutqni grammatik jihatdan o'zlashtirishda qanday qiyinchiliklarga uchraydilarq

Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarda grammatik xatolar nima sababdan kelib chiqadiq

Aqli zaif bolalarni grammatik jihatdan to'qri nutqqa o'rgatish bo'yicha olib boriladigan ishlar tizimini aytib bering.

6 § Maxsus bolalar boqchasida bolalarning so'zlashuv nutqiga va gapirib berishga o'rgatish

REJA

Maxsus bolalar boqchasida bolalarning so'zlashuv nutqiga o'rgatish

Maxsus bolalar boqchasida suqbatlarni tashkil qilish.

qo'qirchoqlar bilan didaktik o'yinlarni tashkil qilish.

Maxsus bolalar boqchasida so'zlab berishga o'rgatish

qikoya qilishga o'rgatish turlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Axmedova.X.A., Razbaeva E.M. Nutq o'stirish metodikasi.

Voproso` formirovaniya rechi anomalno`x detey doshkolnogo vozrasta. Sbornik nauchno`x trudov. Moskva. 1982 g. 23

Borodich A.M. Metodika razvitiya rechi detey. Moskva. Prosveshenie 1981 g.
Efimenko.L.N. Sadovnikov I.N. Formirovanie svyazannoy rechi.
Programma Vospitanie i obuchenie umstvenno otstalo`x detey doshkolnogo
vozrasat. Moskva. Prosveshenie. 1983 g.
Programma vospitanie v detskom sadu. Izd-vo 1983 g.

Bolalar boqchasining tarbiyachilari qal qilishi lozim bo'lgan eng muqim vazifalardan biri maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda ravon nutqni tarkib toptirishdir.

Ravon nutq, tinglovchilar uchun tushunarli bo'lgan mazmunli va mantiqiy nutqdir. Nutqning mazmundorligi bola qayotining mazmundorligiga boqliqdir. qiziqarli kuzatishlar, taassurotlar, kechinmalar va fikrlarning boyligi bola nutqini boyitadi.

Aniq fikrlash maxsuli bo'lgan tushunarli nutqqa etarlicha to'liq va mantiqiy so'zlash bilan erishiladi. Bola nutqining mazmundor va tushunarli bo'lishi ustida ishlash - bu ayni vaqtda bola tafakkurini tarkib toptirish va bilim doirasini kengaytirish ustida ishlash qamdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy munosabatda bo'lishi ikki shaklda amalga oshiriladi: dialog-so'zlashish, ya'ni javob almashish (savollarga javob berish) va monolog - qikoya, ya'ni tinglovchilarga ma'lum darajada kengroq ma'lumot berish.

Dasturning so'zlashuv nutqiga va gapirib berishga o'rgatish soqasidagi talabi asosan bolalarni savol-javob, qisqa ma'lumotlar berish, kengaytirib gapirib berish, ya'ni so'zlashuv (dialog) va monolog tili kabi oqzaki nutqning qar qil kerakli shakllaridan foydalanishga o'rgatishdir.

qozirgi paytda so'zlashuv tilini tarkib toptirish vazifasi kichik guruqdan boshlab qo'yilmoqda. Dastur defektologlar oldiga bolalarni qar qil shakldagi, nutqiy munosabatga: kattalar va bolalar bilan so'zlashish va ular bilan so'zlashishga jalb qilish vazifasini qqyadi.

O'rta guruqda bolalarni butun guruq uchun berilgan savollarga bitta-bittadan javob berishga, kollektiv bo'lib so'zlashishga, suqbatda qatnashishga, o'rtoqlarining javobini qunt bilan tinglash va o'zi qam savol berishga o'rgatiladi. Katta guruqlarda so'zlashuv (dialog) tilini tarkib toptirish vazifalari yanada murakkablashadi. Bolalar savollarga qisqa va kengroq javob berishga, shoshilmay atrofdagilarga tushunarli qilib, keragicha baland ovoz bilan o'z fikrini bayon etishga o'rgatiladi. Bolalarda bir-birining javobini e'tibor bilan tinglash, o'zaro to'ldirish va tuzatish kabi qobiliyatlar tarbiyalanadi.

Shunday qilib, matktabgacha yosh davrida bolalar nutqiy rivojlanishning katta yo'lini bosib o'tadilar va atrofdagilar bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Ular kichik guruqdagi yakka-yakka so'zlashishdan tashkiliy kolllektiv muomalaga bir so'zli va umumiy javoblardan atrofdagilarga tushunarli bo'lgan qisqa va yoyiq shaklda mazmunli javob berishga o'tadilar.

Ushbu vazifalarni qal etishda boladan mantiqiy tafakkurlash jarayonlari-analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslashning etarlicha yuqori darajada bo'lishi ni talab qiladi.

Aqli zaif bolalar uchun aqliy etishmovchilik xarakterlidir, atrof-muqitdagi narsalar va voqealar qrtasidagi aloqa va boqliqlikni belgilay olmaslikka analiz va sintez qilishga qobiliyat yqqligida ifodalanadi. 24Aqli zaif bolaning tafakkuri yaqqol-

obrazli situatsion xarakterda bo'ladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'z navbatida bola nutqni qanday egallashiga bo'liq qolda rivojlanadi. Aqli zaif bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatishga bir tomondan, ularning nutqini rivojlanish xususiyatlariga va qiyinchiliklarni qisobga olishga, ikkinchi tomondan bolalarning mavjud imkoniyatlarini nazarda tutish muqimdir.

Maxsus bolalar boqchasi tarbiyalanuvchilari tarkibi turlichadir, shu sababli qar bir bolaning mavjud imkoniyatlari va qiyinchiliklari qam o'ziga qosdir.

Pedagog aqli zaif bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning xilma-xil yo'llaridan foydalanadi. Yuqorida vazifalarni amalga oshirishda qamma yosh guruqlarida bolalarning kundalik qayotidagi so'zlashuv nutqiga raqbarlik qilish asosiy qal qiluvchi vosita qisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar so'zlashishni o'yin vaqtlarida, kun tartibidagi vazifalarni qal qilish jarayonida, o'yinchoqlarni tabiat burchagidagi jonivorlarni vaqtida o'rganadilar. Katta guruq bolalariga o'z oilasi, uydagi o'yinlari, sevgan kitoblari va qokazolarni esga olishni taklif etish mumkin. Kun mobaynida pedagog qar bir bola bilan yakka-yakka so'zlashishga aqamiyat berishi zarur, buning uchun bolalarning boqchaga kelish, yuvinish, kiyinish, sayr qilish vaqtlaridan foydalanish mumkin. Maxsus tashkil etilgan rejali so'zlashuvlar yakka-yakka va kollektiv bo'lishi mumkin. Kollektiv so'zlashuvlar kichkina va o'rta guruqlarda katta aqamiyatga ega bo'ladi. Ular bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularning xulq-atvorini shakllantiradi.

Suratlarni, bolalar chizgan rasmlarni birgalikda ko'rish aloqa vositasi nutqni o'stirish usullaridan biridir.

So'zlashuv nutqning o'sishida «Oila», «Boqcha», «Do'konda», keyinroq «Maktab» kabi rolli o'yinlar katta aqamiyatga ega. Katta guruqlarda katta yoshdagi kishilar bilan muomalada bo'lish, jamoat joylarida so'zlashish odobi qoidalariga amal qilish malakasiga ko'p e'tibor beriladi.

So'zlashuv nutqini tarkib toptirish mashqulotlari qam olib boriladi.

Bunda suqbatlar, didaktik o'yinlar, suratlar bilan ishlash katta rol o'ynaydi.

Suqbatlarni tashkil qilish. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyaviy ish olib borishda suqbat muqim aqamiyatga ega. Suqbat - bu defektologning savol-javob uslubidirki, bunda u bolalarning bilimlarni o'zlashtirganliklarini aniqlaydi va amaliy tajribalariga tayangan qolda maxsus tanlangan savollar va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan bolalarni qo'yilgan ta'lim-tarbiyaviy va tuzatish masalalarini qal qilishga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish narsa va qodisalarni bevosita kuzatish, ko'rish, eshitish, sezish, qid bilish imkoniyatini berish orqali amalga oshiriladi. Kuzatish jarayoni bilan birga boradigan nutq qissiy tajribani tushunib olishga yordam beradi. Kuzatishdan olayotgan taassurotni pedagog aniq so'zlar bilan tushuntirish orqali to'ldirib boradi. Bu kuzatilayotgan ob'ekt to'qrisida to'laroq tasavvurni shakllantiradi, bolalarning luqatini boyitadi, faol nutqi o'sadi. Kuzatish va ekskursiyalar jarayonlarida boyib boradigan sezgi, idrok tasavvurlarni aniqlash, chuqurlashtirish, mustaqamlash va sistemalashtirish zarur. Bu bolalarda bilimlarni aqloqiy tasavvur va qislarni, tevarak-atrofga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish jarayonida katta aqamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirishda kuzatishlar, ekskursiyalar o'tkazish, surat va diafilmlarni ko'rsatishni, pedagogning suqbatini, so'zlab berishi va didaktik o'yin bilan qo'shib olib borish

kerak. Masalan, katta guruq bolalarini pochton meqnat bilan tanishtirish uchun yaqin pochta bo'limiga ekskursiya uyushtirish pochton bilan uchrashuv tashkil qilish, so'ngra bolalar bilan bu qaqda suqbat o'tkazish kerak. Suqbatning mavzusi mazmuni bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish bo'yicha dastur materiali bilan belgilanadi.

Katta guruq bolalarini ona shaqar bilan tanishtirishda defektolog uning ko'chalari, maydonlari va ko'zga ko'ringan namoyandalarning qaykallari va boshqa joylarga ekskursiyalar uyushtiradi. Ona shaqar qaqida qikoyalar, she'rlar beradi, ularni so'zlab beradi va suqbat o'tkazadi.

Suqbat orqali pedagog bolalarning oilada, turli faoliyat jarayonida va tarbiyachining raqbarligida o'tkazilgan kuzatishlar vaqtda egallagan tajribalari, ya'ni kishilar qayoti va tabiat qaqidagi tasavvurlari va bilimlarini maqsadga qarata aniqlaydi, mustaqkamlaydi va tizimga soladi. Pedagog bolalar bilan ota-onalarining meqnat, ona shaqar qaqida suqbatlashish orqali ularda tevarak-atrofga nisbatan to'qri munosabatni, ya'ni ota-onalar meqnatiga qurmatni, qariyalar va o'zidan kichiklarga qamqqrlikni, onalarga, tuqilgan joylariga nisbatan muqabbat qislarini uyqotadi va qokazo.

Suqbat o'qitishning savol-javob shaklidirki, bunda pedagog bolalarga tayyor bilimlarni bermaydi, balki ustalik bilan qo'yilgan savolar orqali bolalarning o'zlari oldin o'zlashtirgan bilimlari, kuzatishlari, shaxsiy qayotiy tajribalari asosida yangi tushunchalarga xulosalarga olib keladi.

Suqbat deb tarbiyachining guruqdagi qamma bolalar bilan qandaydir bir mavzu yuzasidan tashkiliy so'zlashiga aytiladi.

Suqbatning mavzusi va mazmunini aniqlashda bolalarning yosh xususiyatlari, kuzatishlari, ekskursiyalar va meqnat faoliyatlari jarayonida egallagan bilimlari qisobga olinadi.

Suqbat mavzusi bolalar yoshiga mos va qiziqarli bo'lishi qamda ijtimoiy qayotimizdagi voqea va xodisalarni aks ettirishi lozim. Masalan: «Bizning boqchamiz», «Bizning sevimli shaqrimiz», «Mening oilam», «Biz yaqinda o'quvchi bo'lamiz», «O'zbekistonning poytaxti -Toshkent», «Biz kutubxonada nimalarni ko'rdik».

Ko'p suqbatlar meqnat mavzusiga baqishlanadi: ularda ota-onalar meqnat, pochton meqnat, bolalar boqchasi xodimlarining meqnat, kolxozchilar, ishchi va quruvchilar meqnat, uning natijasi: masalan, «Ishchi va quruvchilar maktab qurdilar», bolalarga loyiq, meqnat jarayonlari: «Kiyimni qanday tikadilar», «Kolxozchilar meva va sabzavotlarni qanday etishtiradilar» va qokazolar qaqida ran boradi.

Aqli zaif bolalar uyda va bolalar boqchasida qar kuni duch keladigan buyumlar: «O'yinchoklar qaqida», «Kiyim-bosh va poyabzal qaqida», «Idishlar qaqida», «Maktab qurolari qaqida», «Yuvinish uchun kerakli narsalar qaqida» suqbatlar o'tkazish kerak. Shuningdek «Baqorda bizning boq», «qishlovchi va uchib ketuvchi qushlar», «Uy va yovvoyi qayvonlar», «O'rmonda qayvonlar qanday qishlaydi», «Yil fasllari», «Meva va sabzavotlar» kabi mavzu o'tkaziladigan tabiat qaqida suqbatlar aloqida o'rin egallaydi.

Katta guruq bolalari bilan «Xushmuomala bo'l», «Yaxshi o'rtoq bo'lib o's», «Kattalarni xurmat qil», «Nima yaxshiyu, nima yomon» kabi aqloq-odob mavzularida qam suqbatlar o'tkazish mumkin.

Bolalar bilan ular kuzatgan, ko'rgan 26narsalar surat, diafilm va kinofilmlar

qaqida qam suqbatlashsa bo'ladi. Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan suqbatlar ko'proq uning bevosita kuzatishlari bilan boqlangan bo'lishi lozim. Suqbat davomida defektolog bolalarga ular ko'rgan, ekskursiyada tanishgan narsa va xodisalari qaqida yangi bilim beradi. Masalan, bolalar qushlarni kuzatib, qarqa va chumchuqlarning qishlab qolishini, boshqa ko'p qushlarning uchib ketishini biladilar.

qo'qirchoqlar bilan didaktik o'yinlarni tashkil qilish. So'zlashuv nutqi (dialog) bolalar boqchasining kichik guruqidan boshlab shakllantirib boriladi. Kichik yosh - bu dialog tarzida gapirish yoshi qisoblanadi. Shuning uchun kichik guruq pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri - bolalarni atrofdagi kishilar bilan so'zlashishga o'rgatishdir. Bu guruqlarda bolalarning nutqiy aktivligi (savollarga javob berish) asosiy o'rin ni egallagan o'yin shaklidagi mashqulotlar o'kaziladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar didaktik o'yinda o'yin qoidasiga rioya qilish orqali aniq vazifani bajarishga qarakat qiladilar. O'yin vazifasini bajarish uchun boladan o'z diqqatini bir erga to'plash, kuzatuvchanlik, esda qoldirish kabi faol aqliy faoliyat talab qilinadi. Didaktik o'yinlar asosida aqli zaif bolalarning jismoniy va psixik nuqsonlari to'qrilab boriladi qamda bilish faoliyatlari shakllantiriladi. Didaktik o'yinlar orqali bolalar atrof-muqitni to'qri tushunib, anglay boshlaydi. Bolalarga beriladigan didaktik o'yinlar ularning atrof-muqitdan olgan taassurotlarini, tushunchalarini mustaqamlash va chuqur anglashga yordam beradi. Shu bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirish va so'z bilan ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga defektolog qo'qirchoqlar bilan didaktik mashqulotlar tashkil qilib, qo'qirchoq bilan uncha katta bo'lmagan saqna ko'rinishini ijro etadi. O'yin vaqtida u qo'qirchoq nomidan gapiradi, bolalarga savollar beradi, javob beradi, aytib turadi, so'zlarni takrorlashni so'raydi va qokazo.

Bolalar qo'qirchoqqa jon-dili bilan xor bo'lib yoki bitta-bitta javob beradilar. Agar ular mashqulotlarda bolalar pedagogning savollariga javob berishga uyalsalar qam, o'yin sharoitida ular so'zlashishda xursandchilik bilan qatnashadilar. qo'qirchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar «qo'qirchoqni cho'miltirish», «qo'qirchoqni choy, ovqat bilan meqmon qilish», «qo'qirchoqni uxlatish», «sayrga otlantirish», «qo'qirchoqning tuqilgan kuni» va qokazolar juda ko'p ishlangan. Bu o'yinlarning xammasida bolalar faqat qarab o'tirmasdan so'zlashishda ishtirok etishlari muqimdir. Pedagog bolalarning so'z boyligini faollashtirishning turli usullarini qo'llaydi.

So'zlab berishga o'rgatish. So'zlab berishni bilish, ya'ni o'z fikrini keng va mantiqiy boqlangan shaklda ifoda etish bolalarning atrofdagilar bilan munosabatda bo'lishida katta aqamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'z taassurotlarini tinglovchilarga bildirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning qikoyalari qamma vaqt qam tinglovchilarga tushunarli bo'lavermaydi. Bunga sabab aqli zaif bolalarning keng monolog tarzida so'zlashni juda bo'sh egallaganliklaridir. Monolog tarzida gapirish deganda bir shaxsning tinglovchilarga qaratilgan keng, batafsil nutqi tushuniladi. Nutqning bu shakli so'zlovchilardan o'z fikrini tushunarli va izchil (mantiqiy) ifoda etish malakasini talab qiladi. Nutqning bu sifatini maktabgacha yoshdagi bolalar juda sekin egallay boshlaydilar.

Me'yorda rivojlanayotgan bolalar ko'pincha o'z taassurotlarini boshqalarga qikoya qilib berishga intiladilar,

27ko'rganlari qaqida ma'noli, tushunarli

va mantiqiy qikoya qilib berish, o'z fikrini to'qri tuzilgan jumlar bilan ifoda etish imkonini beradigan oqzaki nutq shaklini egallashga ehtiyoj paydo bo'ladi. Aqli zaif bolalar qam maktabgacha yoshdan boshlab yordamchi maktabda o'qish, aqliy jiqatdan kamchiliklarini bartaraf qilish, keyinchalik esa ijtimoiy qayotga va qo'llaridan keladigan ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash uchun zarur bo'ladigan bu murakkab so'zlashish malakasini egallashlari zarur. Kichik maktabgacha yosh diologik tarzda so'zlashish yoshi deb belgilangan. Monolog tarzda gapirish me'yorda rivojlanayotgan bolalarda 5 yoshda paydo bo'ladi. Bu davrda bolada mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, ko'proq so'z zapasi yiqiladi, u ona tilining grammatik tuzilishi asoslarini o'zlashtiradi. 7 yoshda bolalar oqzaki nutqning asosiy shakllarini, ya'ni dialogik tarzda so'zlash va monologik tarzda so'zlashni egallagan bo'ladilar.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bolalarda dastlabki so'zlarning kechki xosil bo'lishi (dastlabki so'zlar 3-4 va qatto 5 yoshlarda paydo bo'ladi), so'z birikmalarini egallash davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi, so'zlardan gaplarni tuzish uzoq vaqt talab etilishi, nutqiy ijodiyotda mustaqillikning etishmasligi, nutqiy faollik darajasining pastligi, nutqiy muloqot kambaqalligi kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar bir nechta gaplarni o'zaro biriktirib, fikrning mantiqiy izchilikda bayon qilishga, sabab va oqibatning ketma-ketlikda bildirishga, bayon qilinayotgan qodisadagi muqim xususiyatlarni ajratishga qiynaladilar. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun «Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash» dasturining «Nutq o'stirish» bo'limida monolog tarzda so'zlashishga o'rgatish vazifalari belgilab berilgan. qar bir yosh guruqlarida aqli zaif bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

Kichik guruqda pedagog yordamida ko'rgan yoki eshitganlari qaqida jumlarini grammatik jiqatdan to'qri tuzgan qolda gapirib berishga o'rgatiladi. O'rta guruqda o'zlari kurgan va eshitgan narsalar qaqida mavzudan chetga chiqmay, mantiqan boqlab so'zlab berishga, qikoya qilingan matnni eshitish va idrok qilish, matn mazmunini ketma-ketlikda aytib berishga aqamiyat beriladi.

Katta guruqda sodir bo'lgan voqea qaqida unga baqo bergan qolda gapirib berish (3-4 ibora) bo'yicha mashqlar o'tkaziladi. Shuningdek syujetli rasmlar seriyasi asosida (2-3 ta rasmlar) qodisani mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilishga (4-6 ibora), buyum yoki o'yinchoqqa qarab gapirib berish, mavzu bo'yicha voqealar ketma-ketligini saqlagan qolda qikoya qaqramonlarining xatti-xarakatlariga baqo berib aytib berishga, tanish matnlarni qikoya qilishga qrgatiladi. Maktabga tayyorlov guruqida sodir bo'lgan voqea qaqida 5-6 ta jumladan iborat boqlangan qikoya tuzish, syujetli rasmlar seriyasini mantiqiy izchilikda aytib berish, predmetli rasmlarga qarab gapirib berish, voqealar orasidagi sabab-oqibatni boqliqligini ko'rsatish bo'yicha ishlar olib beriladi. Notanish matnni tayyorgarliksiz gapirib berishga o'rgatiladi.

qikoya qilishga o'rgatish turlari. Maxsus bolalar boqchasida quyidagi qikoya qilish turlaridan foydalaniladi:

Kuzatish yoki idrok qilish vaqtida so'zlab berish.

Esga tushurib gapirib berish.

Rasmda tasvirlangan narsa va qodisalar qaqida qikoya tuzish.

qikoya qilish biror bir fakt yoki voqeani 28ravon qilib gapirib berishdir. Mazmuni

bo'yicha qikoyalarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

a) qayotiy voqealarga asoslangan faktik qikoyalar (bularga kuzatish yoki idrok qilish vaqtidagi qikoyalar, ko'rib turgan buyum, o'yinchoqlarni tasvirlash, xotira bo'yicha qikoyalar, ya'ni ko'rilgan narsalar qaqidagi qikoyalar) kiradi.

b) ijodiy qikoyalar (bolalar tomonidan o'ylab tuzilgan qikoyalar) qayotiy materiallarga asoslanadi, lekin ularda bolalarning tajribasi qam ishga solinadi. qikoyaning bunday turi maktabga tayyorlov guruqida o'tkaziladi.

Etti yoshli aqli zaif bolalar o'z qayol kuchlari va pedagog yordami bilan uncha murakkab bo'lmagan qikoya va ertaklarni to'qiy oladilar. Bolalar ijodiy qikoyalarida ishtirok etuvchi shaxslarning yangi obrazlarini ularning qarakati, qiliqlarini o'ylab topadilar.

qikoyalar shakli bo'yicha tasviriy va syujetli bo'lishi mumkin. Tasviriy qikoya — bu biror predmet, masalan, o'yinchoq, kiyim yoki xodisaning — tuqilgan kun, bayram va boshqalarning xarakterli belgilarini gapirib berishdir.

Syujetli qikoya — bu qandaydir bir voqeani ijodiy gapirib berishdir. Masalan, "A'zam kuchukchani qanday qilib topib oldiq", "Bo'qirsoqni tulki qanday qilib eb qo'ydiq va boshqalar.

qikoya qilishga o'rgatish usullari. Bolalarni qikoya qilishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. qikoya qilishga o'rgatish usullari turli-tumandir.

Ularning eng asosiylari — defektologning qikoya qilish namunasini aytib berish, qikoyaning rejasini tuzib berish, qikoyani qismlar bo'yicha tuzish, uning rejasini kollektiv bo'lib muqokama qilish, tarbiyachining savollar berishi, aytib turishi va bolalarning qikoyalarini baqolash usullaridir.

Defektolog qar bir mashqulot uchun aniq bitta yoki ikkita usulni asosiy usul qilib tanlaydi. Masalan, qikoya qilish namunasini aytib berish va qikoyaning rejasini tuzib berish va rejani kollektiv bo'lib muqokama qilishni tanlashi mumkin.

1. Defektologning qikoya qilish namunasi — bu didaktik usul bo'lib, uning yordamida pedagog bolalarni boshqalardan o'rnak olib qikoya qilishga o'rgatadi. qikoya qilish namunasi qimmatli tarbiyaviy mazmunga ega bo'lishi, bolalarni o'z qikoyalarida yaxshi qatti-qarakatlarni, do'stlik tuyqularini tasvirlashga undashi lozim.

qikoya qilish namunasini berish usuli eng engil usul bo'lib qisoblanadi, chunki bolalar defektolog surat, predmet, voqealar qaqida savollarni yoki ko'rsat malarini emas, balki tayyor qikoyasini eshitadilar. Shuning uchun qikoya namunasini berish usulidan qikoya qilib berishga o'rgatishning birinchi bosqichlarida yoki defektolog bolalar oldiga yangi vazifalar qo'yganda foydalaniladi.

Namuna to'qridan-to'qri o'rgatish usuli sifatida mashqulot boshida qo'llaniladi (mashqulot oqirida namuna berish noto'qri dir). Namuna qajmi jiqatidan uncha katta bo'lmasligi, undagi jumlar qisqa, mantiqiy bayon qilingan bo'lishi kerak. Defektologning qikoya qilish namunasini yaxshi qikoya qila olmaydigan bir-ikki bola takrorlashi mumkin. Bunda defektologning ravon nutqiga taqlid qilish monolog tarzidagi nutqni o'stirishda ijobiy rol o'ynaydi. Bu usuldan maxsus bolalar boqchasining kichik guruqlarida keng foydalaniladi.

qikoyaning namunasini berishni boshqa usuli, ya'ni qikoyaning rejasini berish bilan boqlash yaxshiroqdir.

2. qikoyaning rejasini berish - bu qikoya tuzishda amal qilish lozim bo'lgan ikki-uchta asosiy savollardir. Namuna bo'yicha ikki-uchta mashqulot o'tkazgach, (masalan, o'yinchoqlarni tasvirlash), 29qikoyaning rejasini berish - qikoya

qilishga o'rgatishning mustaqil, asosiy usuli bo'lib qoladi. Defektolog mashqulotgacha rejaning asosiy va qo'shimcha savollarini tayyorlaydi. chunki bir mashqulotda reja savollarining o'zgarib turishi bolalarni faollashtirishda, qikoyani turli-tuman qiladi.

Agar katta guruqdagi bola rejadan chetga chiqsa, defektolog uning qikoyasini bo'lmaydi. Lekin sekin-asta unga qikoyasining to'liq emasligi yoki mantiqiy emasligini aytib, bolaning javobini to'ldirishga guruqni jalb qiladi. Maktabga tayyorlov guruqida dastur yanada yuqoriroq talablarni qo'yadi. Bolalarni rejadagi savollarga quloq solishga, unga rioya qilishga o'rgatiladi (ayniqsa suratga qarab qikoya qilishga va tajriba asosidagi qikoyalarda).

Bu guruqda bolalar qirtoqlarining qikoyalarini nazorat qilishga ko'proq jalb etiladi (qozir nima qaqida gapirish kerakq qammaga tushunarli bo'lishi uchun qikoyani nimadan boshlash yaxshiroqq»).

Reja tuzib berish qikoyaning namunasini berish usuliga qaraganda - eng qiyin usul bo'lib, undan bolalarni qikoya qilishga o'rgatishda keng foydalaniladi.

3. Rejani kollektiv bo'lib muqokama qilish — bu usul bolalarni ijodiy qikoya qilishga o'rgatishning birinchi bosqichlarida ko'proq qllaniladi (defektolog tomonidan taklif etilgan mavzu bo'yicha qikoya tqqishda, suratga qarab qikoya tuzishda foydalaniladi).

Pedagog taklif etgan mavzu bo'yicha qikoyalar tazish qikoya qilishning qiyin turidir, qikoyalar turli-tuman bo'lishi uchun defektolog bu usuldan foydalanishi mumkin. Defektolog bolalarga mavzu va reja beradi.

Mavzu: «Boqda»

1. Boqda qanday mevali daraxtlar o'sadiq
2. Mevalar qaqida gapirib ber.
3. Mevalar qachon pishadiq

So'ngra pedagog «Mevalar qaqida gapirib ber» degan savolga bir necha bolalarni javob berishga jalb qiladi. Bu bolalarni mevalarni o'zlaricha tasvirlashga, mevalar qanday bo'lishi ni eslashga undaydi. Bolalarning joyida turib bergan javoblari qikoya bqlmaydi, u bir necha yoki bitta jumladir. Maqsad qikoyalarning turli-tuman bo'lishi mumkinligini ko'rsatishdir.

Tarbiyachi reja tuzayotganda, kollektiv bo'lib muqokama qilish uchun eng qiyin savollarni oldindan aniqlashi lozim.

4. qismlar bo'yicha qikoya tuzish.

Odatda bu usul mazmuni qismlarga oson bo'linadigan suratlar bilan ishlashda foydalaniladi. Suratlar bilan ishlashda pedagog oldindan uni sharli ravishda qismlarga bo'ladi va bola biror qism qaqida so'zlab berishi lozim.

Umumiy kollektiv tajriba asosida qikoya qilishda defektolog oldindan mavzuni juda mayda qismlarga bo'ladi. Bu reja bo'yicha bolalarning ikkita-uchta qikoyalardan keyin boshqa qismga o'tiladi.

Kollektiv qikoya uchun «Bolalar boqchasida yangi yil archasi», «qayvonot boqida eskursiya», «Shaqar atrofiga sayoqat» va boshqa mavzularni tanlab olish mumkin.

Mashqulotning oxirida pedagog mavzuning qamma qismlari bo'yicha bitta umumiy reja beradi va yaxshi qikoya qiladigan 1-2 bola qammasi qaqida birdan gapirib beradi.

5. Savollar berish - bu keng tarqalgan usul. Lekin qikoya qilishda u ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Savollar odatda javob berayotgan bolaga yoki butun guruqga qikoya tugagandan keyin uni aniqlash 30yoki to'ldirish uchun beriladi. Savollar

metodik jihatdan to'qri bo'lishi lozim. Baland ovoz bilan qamma bolalarga qarata javob berish uchun bolani chaqirishdan oldin pauzaga rioya qilish kerak. Masalan, bola o'zining sevgan o'yinchoqi qaqida qikoyasidan keyin unga sen bu o'yinchoqni qaerdan olgan edingq Sen uni qaerda saqladingq» va qokazo savollarni berish mumkin.

6. Aytib turish - qikoya qilish jarayonida bola yanglishib qolgan vaqtda savol berishdan ko'ra, so'zni yoki gapni aytib turishdan foydalanish yaxshiroqdir. Aytib turish yoki to'qri lash etarli darajada baland ovozda, xayrixoqlik ruqida bo'lishi lozim. To'qrilangan so'z yoki jumlani bolaga takrorlatish shart emas. chunki bola qikoyaning davomini esdan chiqarib qo'yishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar eslab qolish, esga tushurish, esda saqlash jarayonlari buzilganligi sababli bu usuldan foydalanish yaxshi natija beradi.
Mana shu davrda aqli zaif bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish, turli shakllar qaqidagi tasavvurlarni shakllantirish muqim aqamiyatga ega. Kichik guruqda ishni shar va kub bilan tanishtirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Defektolog maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga sharni ko'rsatadi va nomini aytadi qamda shar yordamida qar xil qarakatlarni bajaradi: uni stol ustida kaftlari orasida yumalatib, qo'ldan-qo'lga o'tkazib yumalatadi. U qarakat jarayonida «shar yumalayapti. Men sharni u qo'limdan bu qo'limga yumalatib o'tkazdim», - deydi. qar bir bolaga shar olish va xuddi shunday qarakatlar qilish taklif etiladi. Keyin qar qaysi boladan uning olgan shari qanday rangdaligini, yumalaydimi-yo'qmi so'raydi va xulosa qiladi. Komilda qizil shar, u yumalaydi. Nigorada qavorang shar, u yumalaydi. Sobirda yashil, u qam yumalaydi. qamma sharlar yumalaydi. Sharning shakli qaqidagi bilimlarni umumlashtirish uchun turli kattalikdagi sharlar bir-biriga taqqoslanadi. Defektolog bolalarni doira qilib o'tqizadi. Ularga qar xil rangdagi katta va kichik sharlarni ko'rsatib: «Bu nimaq Sharning rangi qandayq qaysi shar kattaroqq qaysinisi kichikroqq» deb so'raydi. U bir bolaga kichik bir sharni, boshqasiga katta sharni beradi. Bolalarga sharlarni doira bo'ylab bir biriga uzatish taklif etiladi. Oldin katta shar kichik sharni quvib etadi keyin esa kichik shar kattasini quvib etadi.

Kub va sharlarni farqlash, predmetlarni berilgan belgilari bo'yicha tanlash (juftlarini tanlash, guruqlar tuzish) mashqlariga kiradi, ya'ni to'plash qaqidagi tasavvurlarni shakllantirish ishi bilan yaqindan boshlab olib boriladi.

Xar bir shakl faqat o'z shakliga mos kesik (teshik)ka tushishi va joylanishi (yoki o'tishi)ni bolalarga ko'rsatib, tushuntirib beriladi. («Sharcha yumaloq, teshikcha qam xuddi shunday yumaloq»).

Defektolog ko'rsatkich barmoqi bilan 72taxtaching teshigi (kesigi) atrofida

aylantirib chiqib, bolalarni predmetlar shaklini ushlab ko'rib tekshirish usuliga o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning mayda qo'l muskullari yaxshi shakllanmaganligini qisobga olib bolalarning qo'lini ushlab kerakli qarakatlarni qilib unga, yordam beriladi.

Maxsus mashqulotlarda orttirilgan sensor tajribalarga tayanib, bolalarni doira, kvadrat, uchburchaklarni shakllar nomini aytishmasdan farq qilishga o'rgatiladi. Geometrik shakllar juftlab taqqoslanadi. Masalan, kub bilan kvadrat, shar bilan doira, uchburchakli prizma bilan uchburchaq parallelepiped bilan to'qri turtburchak.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni geometrik shakl modellarining konturlari bo'ylab barmoq yurgizib chiqish va qo'l qarakatini ko'z bilan kuzatishni o'rgatishga katta e'tibor beriladi.

Defektolog shaklni ko'rsatadi, uning nomini aytadi, xuddi shunday shaklni ko'rsatishlarini bolalardan so'raydi, keyin esa bolalarni «qavoda» o'zi bilan birga qarakat qilishga jalb etib, shakl konturini ko'rsatkich barmoqi bilan bir necha marta aylantirib chiqadi. Kontur atrofidagi barmoq xarakati shaklning butun yuzi bo'ylab ko'l yurgizib chiqish bilan yakunlanadi. Bolalar defektologning ko'l xarakatini kuzatib turadilar, keyin esa o'zlari shakl modeli bo'ylab yurgizib chiqib uning nomini aytadilar. Defektolog 2-3 shakl tasviri solingan rasmlardan foydalanib, bolalarga konturlardan barmoq yurgizib chiqishni mashq qildiradi. Bolalar shakllarni bir-biridan farq qilish va nomini aytishni mashq qiladilar. Buning uchun ularga, masalan, mana bunday topshiriqlar beriladi: «Doirani o'ng qo'lingga, kvadratlarni esa yuqori qismiga qo'y», «Sening o'ng qo'lingda qancha shakl borq». «Xuddi mana shunday shaklni top» bolalar defektolog qo'lidagi shaklga o'xshash shaklni topadilar, «O'z uyingni top» (uychalar turli shakldagi belgilar bilan ko'rsatiladi), «Mashina va poezd uchun qildiraklar tanlab ol» (bolalar turli shakllar to'plami ichidan doiralar tanlab oladilar), «Domino», «Ornament terish» o'yinlaridan foydalaniladi.

Doira, kvadrat va uchburchaklar modelidan to'plamlar miqdorini taqqoslashni mashq qildirish uchun namuna va tarqatma material sifatida foydalaniladi.

Natijada o'quv yili oxiriga kelib bolalar xilma-xil shakllar orasidan doira, kvadrat va uchburchaklarni modellarning rangi va kattaligi qar xil bo'lsa qam topa oladilar.

Bundan tashqari, ikkita bir xildagi geometrik shakldan boshqa geometrik shakl yasashga o'rgatiladi: ikkita uchburchakdan kvadrat yasash, ikkita yarim aylanadan - aylana yasash, ikkita kvadratdan to'qri to'rtburchak yasash.

Geometrik shakllar.

Shakl qaqidagi tasavvurlarni o'stirish ishi sanashga o'rgatish bilan va buyumlarning o'lchamlarini taqqoslash mashqlari bilan parallel ravishda amalga oshiriladi va uzviy suratda boqlab olib boriladi. Bu ishni tasviriy faoliyatning turli xillariga o'rgatish bilan boqlab olib borish katta ahamiyatga ega, chunki buyum yasash (rasmini chizish, loy yoki plastilindan yasash, konstruktsiya qilish) eqtiyoji uning shaklini aniq aloqida-alloqida qismlarga bo'lib idrok etish zaruriyatini tuqdiradi.

Ushbu guruqda bolalarda doira, kvadrat, to'qri to'rtburchaq uchburchaklarni farqlash ko'nikmasi mustaqkamlanadi va ularni nomlashga o'rgatiladi. Mazkur shakllarning modelidan bolalarga buyumlar yiqindilari o'rtasidagi miqdoriy nisbatlarni aniqlashni va sanashni

sifatida keng foydalaniiladi. Defektolog bolalarni sanashga o'rgatishda yo'l-yo'lakay ularning mazkur shakllar qaqidagi tasavvurlarini mustaqkamlab boradi. U bolalarga shakl konturi atrofidan qo'l yurgizib chiqishni, uni ushlab ko'rishni, ko'rsatilgan shakldagi shakllarni tanlab olishni (chunonchi, qamma kvadratlarni tanlab olishni) taklif qiladi. Bolalar qar xil yoki bir xil, ammo rangi yoki o'lchamlari qar xil bo'lgan shakllar miqdorini taqqoslaydilar. («qaysinisi ko'proq - kvadratlarmi yoki uchburchaklarmi Katta uchburchaklar ko'pmi yoki kichkina uchburchaklar ko'pmi» va q.k.

Defektolog ko'rgazma materialni doimo o'zgartirib turadi. U ayni bir shaklning turli rang va o'lchamlardagi modellarini ko'rsatadi. qar gal bolalarga bu buyumlarning rangi va ulchamlarini aytib berishni taklif qiladi.

Shakllarning muqim xususiyatlari bilan bir qatorda ularning muqim bo'lmagan xususiyatlarini ajratib ko'rsatish shakllar qaqidagi bilimlarni umumlashtirish uchun shart-sharoit yaratadi. Shakllarning rangi va o'lchami o'zgaradi, ammo shaklning belgilari o'zgartirilmaydi. Bolalar shu belgilarga qarab shakllarni taniydilar.

«Ajoyib qopcha» o'yini turli variantlarda o'tkaziladi. Bolalar shakllarni taniydilar, ko'rib idrok etiladigan namunaga qarab uni paypaslab ko'rib topadilar, yoki aksincha, ushlab ko'rib idrok etilgan namuna asosida shaklni ko'rib topadilar. Individual mashqlar o'tkazish uchun «Juftingni top», «Rasmga mos shaklni top» va boshqa shu kabi o'yinlardan foydalaniladi. Bolalar shakllarni rangi va kontur tasvirlarini taqqoslab, tegishli shakllarni topadilar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar mashqulotlarda shakl jiqatidan bir-biriga yaqin shakllar (doira va oval bilan chegaralangan shakllar)ni farq qilishni, idrok etiladigan shakllarni elementar tarzda taxdid qilishni, ularning ba'zi bir xossalarini ajratib ko'rsatishni tasvirlashni o'rganadilar. Bolalar qar xil ko'rinishdagi uchburchaklar, oval shaklidagi shakllar bilan tanishtiriladi, shakl bo'yicha o'zgarishlarni ko'rish, o'xshash shakllarni topishga o'rgatiladi Bolalar asta-sekin shakllarni tekshirish va tasvirlashga, uning geometrik namunaga o'xshash va farq qiladigan tomonlarini topishga o'rgatib boriladi. Shakl qaqidagi tushuncha faqat mashqulotlardagina o'stirib borilmaydi. Didaktik o'yinlarning qo'llanishi muqim aqamiyatga ega. Didaktik o'yinlar bolalarning faqat shakl qaqidagi tasavvurlarini aniqlab va mustaqkamlabgina qolmay, balki ularning ana shu tasavvurlarini boyitadi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar bilan ishlash jarayonida ko'rsatma materiallardan keng foydalanish geometrik shakllar qaqida umumlashgan tasavvurlarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Katta guruq bolalarga qar bir shakl qar xil rangda, turli o'lchamda va tomonlari turli nisbatda, turli materialdan (qoqoz, karton, faner, plastelin va boshqa narsalardan) yasalgan model shaklida ko'rsatiladi. Individual ishlash uchun jadval va kartochkalar qo'llaniladi, bunda bir xil yoki qar xil ko'rinishdagi shakllarning rasmi turli dolatda joylashtirilgan bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning tafakkurini rivojlantirish maqsadida mashqlar tavsiya etiladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar xulosa chiqara boshlaydilar. qizil kvadratning tomonlari teng. Ko'k kvadratning tomonlari teng, yashil kvadratning tomonlari qam teng, demak barcha kvadratning tomonlari teng. Kvadratning ayrim belgilari (rangini) o'zgartirish kvadratga xos tomonlarning teng bo'lishi qaqida umumiy xulosa 74chiqarishga imkon beradi.

Defektolog shakllarni taqqoslash bilan bolalarga mustaqillik ko'rsatish uchun imkon beradi. Katta guruq bolalari uchun shakllarni muskul qarakat sezgilari yordamida tekshirish usulidan foydalanib qo'llanish qali qam muqim aqamiyat kasb etadi. Defektolog bolalarga shakl konturi bo'ylab barmoq yurgizib chiqishni eslatib, barmoq yoki ko'rsatkichning konturi bo'yicha qarakat qilishini kuzatib borishlarini taklif etadi. Shakllarning bir-biridan farqini ajratish uchun buyumlarni bir-birining ustiga qo'yish qamda yoniga qo'yish usullarini qo'llanish davom etadi. Bolalar shakllarning elementlarini sanaydilar, bir turdagi, lekin qar xil rang yoki o'lchamdagi shakllar modelning tomonlari va burchaklari sonini, shuningdek kvadrat, uchburchak va to'qri to'rtburchakning tomon qamda burchaklari sonini taqqoslaydilar.

Katta guruqda buyumlarni guruqlashga oid mashqlar oldingi guruqlarga qaraganda quyidagi usulda murakkablashtirib boriladi: taqqoslanadigan shakllar va shakl turlarining soni oshirib boriladi, belgilar sonining (ranga, o'lchami, material) ko'pligi bilan farq qiladigan modellar qo'llaniladi; ayni bir xil modellar qar xil belgilari: shakli, rangi, o'lchami bo'yicha guruqqa ajratiladi; guruqlashga oid mashqlar tartib bo'yicha sanashga o'rgatish bilan birga qo'shib olib boriladi. Bunda birliklarda qosil bo'lgan sonlar qamda sonlar o'rtasidagi boqliqlik o'rgatiladi.

Bolalarni doira bilan ovalni, prizma bilan uchburchakni, to'qri to'rtburchak bilan parallelepipedni taqqoslashga o'rgatishda bu shakllar qar xil o'lchamda, rangda, qar xil fazoviy joylashishda tasvirlangan jadvallardan foydalaniladi. Bolalar karton, qoqoz, plastilindan tayyorlangan shakllar bilan ishlaydilar.

Kundalik qayotda loy va plastelindan narsalar yasash maxqulotlarida bolalar qajmli geometrik shakllar (shar, kub, silindr) bilan uchrashadilar. Bu shakllarni yaxshilab o'zlashtirish uchun ushbu o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi: «Xaltachadagi nimaq», «Top va jim tur», «Xonadan sharga o'xshash buyumlarni top», «Kim dumaloq jismlarni ko'p topadiq», «Geometrik loto» va boshqalar. O'quv yilining boshida defektolog bolalarning shakl qaqidagi bilim darajalarini aniqlaydi. Agarda bolalar oval shaklini doira shakli bilan, kvadratni to'qri to'rtburchak bilan va boshqa shakllarni adashtirsalar, u qolda geometrik shakllarni ko'rib chiqish va solishtirish zarur.

Shakllar juft-juft qilib solishtiriladi, sezgi qarakat va ko'z bilan ko'rib tekshiriladi. Bolalar kontur atrofidan qo'l yurgizib chiqib uning sirtini paypaslaydilar. Shaklni idrok etadilar.

Shakllar nimasi bilan bir-biriga o'xshashi, nimasi bilan farq qilishi aniqlangach, umumiy belgilar, qamma uchburchaklarda uchtadan tomon, uchtadan burchak borligi ko'rsatiladi. Muayyan shakl nomi bilan uning tuzilishi o'rtasidagi boqliqlik aniqlanadi. «Nima uchun bu shakl uchburchak deb ataladiq» - deb so'raydi defektolog. Bolalar geometrik shakllar qaqida olgan bilimlaridan tevarak-atrofdagi shakllarni taqlil qilishda foydalanishlari zarur. Bolalarga quyidagi topshiriqlar beriladi: deraza, quticha qopqoqi, shkaf devori, ro'mol qanday shaklda ekanligini aniqlash; uchburchak shakliga ega bo'lgan predmetlar yoki predmetlarning qismini aytish va q.k. Kundalik qayotda: «qatorga ettita», «Geometrik loto», «Sabzavotlar ekamiz», «quvnoq bolalar» o'yinlarini mashq qilish foydalidir. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning geometrik shakllar qaqidagi bilimlarini mustaqkamlash va aniqlash maqsadida quyidagi mashqlar taklif qilinadi. Masalan, plastelindan kub, silindr, shar yasash, qoqozdan kvadrat,

to'qri to'rtburchak va uchburchaklar qirqish, shaklni ikki qismga bo'lish, va aksincha, kislardan butun tuzish, bir xil shakllardan boshqa shakllar tuzish (ikkita kvadratdan to'qri to'rtburchaq ikkita uchburchakdan kvadrat tuzish, kvadratni diaganali bo'yicha bo'lib, ikkita uchburchak qosil qilish, doirani ikki yarim doiraga bo'lish va ikkita yarim doiradan bitta doira yasash va boshqalar) cho'plardan u yoki bu shakllarni yasash.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Kichik guruqda shakllar qaqidagi tushunchani shakllantirish jarayoni qaqida so'zlab bering,
2. O'rta guruqda shakllar qaqida qanday ishlar olib boriladiq
3. Katta guruqda shakllar qaqidagi tasavvurlarni shakllantirish ishlarini aytib bering.
4. Tayyorlov guruqda shakllar qaqidagi tasavvurlarni shakllantirish ishlarini aytib bering.

Tayanch so'zlar:

Shakl - geometrik tushuncha.

4 § Kattalik qaqidagi tushunchalarni shakllantirish metodikasi.

Reja

1. Kichik guruqda kattalik tushunchalarini shakllantirish
2. O'rta guruqda kattalik tushunchalarini shakllantirish
3. Katta guruqda kattalik tushunchalarini shakllantirish
4. Tayyorlov guruqda kattalik tushunchalarini shakllantirish

1. Formirovanie elementarno`x matematicheskix predstavleniy u umstvenno otstalo`x doshkolnikov. Defektolgiya. 1973 g.

2. Venger L.A. Plyugina E.G. Venger N.B. Vospitanie sensornoy kulturo` rebenka. Moskva. Prosveshenie. 1988 g.

3. Davidova S.I. Vo`polnenie umstvenno otstalo`mi doshkolnikami zadaniy po podrajaniyu, obrazu i rechevoy instruksii. Defektologiya. 1973 g.

Maktabgacha tayyorlov guruqida bolalarning uzunligi, qalinligi, kengligi, balandligiga ko'ra taqqoslash davom ettiriladi. Aqli zaif bolalar buyumlarning kattaliklarini taqqoslashga va uning oldin buyumlar masofalarini bir turi bilan farq qiladigan qolda, keyinroq masofalarning ikki turi va niqoyat uch turi bilan farq qiladigan qollarda aniq belgilashga o'rganadilar.

Narsalarning katta-kichikligi qaqida tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar qamda bolaning tevarak-atrofidagi narsalar bilan u kunda duch keladigan vaziyatni puxta ajratishni talab qiladi.

U yoki bu tushunchalarni shakllantirish ustidagi dastlabki mashqulotlar uchun didaktik materiallar, narsalar bir-biridan faqat bitta belgisi bilan farq qiladigan qilib tanlash lozim. Masalan: narsalarning uzunlik belgisini shakllantirishda lenta, qoqoz tasmalarini shunday tanlash kerakki, ular faqat uzunligi bilan farqlanib boshqa belgilari (eni, qalinligi, rangi) bir qilda bo'lishi lozim. Ko'rgazma materiallarni bunday tanlash muqim 76belgilari bilan muqim bo'lmagan

belgilarni aralashtirmaslikning oldini oladi. Keyingi mashqulotlarda ikkita so'ng uchta belgilar bilan farqlanadigan narsalar tanlanadi. Masalan, bitta lenta uzun va ensizroq, boshqa lenta esa qisqa va enliroq.

Taqqoslash yo'li bilangina maktabgacha aqli zaif bolalarning diqqatini buyumlarning kattaliklari bo'yicha nisbatlarini topishga qaratiladi.

Aqli zaif bolalarga taqqoslashni ustiga qo'yish, yoniga qo'yish usuli bilan tushuntirish davom ettiriladi. Bolalar bilan birgalikda buyumlarni bir-birining ustiga yoki yoniga qanday to'qri qo'yish bo'yicha mashqlar olib boriladi.

Bolalar turli uzunlikdagi lentalarni oladilar. Defektolog bir lentaning ustiga ikkinchisini qo'yib, ularning uchini birlashtirishni so'raydi. Defektolog buni o'zi bolalarga ko'rsatadi. Xamma bolalar buni kuzatadi, keyin o'zlari buyumlar bilan ish bajaradilar. Bunday ishlar bir necha marta takrorlangandan keyin bolalar qaysi lenta uzunroq qaysinisi qisqaroq ekanligini aniqlab, xulosalar chiqaradilar. Bolalar maxsus tanlangan buyumlar orasidan kattaligi bo'yicha teng buyumlarni topishni o'rganadilar, so'ngra atrofdagi buyumlar orasidan namunaga teng buyumni izlaydilar.

Bolalar buyumlarning kattaliklari o'sib borishi, kamayib borishi tartibida joylashtirish bo'yicha mashq qiladilar. Bu vazifani bajarish orqali aqli zaif bolalarda aqliy rivojlanishi qam ortib boradi.

Maktab yoshigacha aqli zaif bolalarning ko'z bilan chamalash malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriklar berib boriladi. Bu aqli zaif bolalarni kattaliklarning xossalari bilan tanishtiribgina qolmay, ularning fikrlash qobiliyati qam rivojlanadi. Masalan, sayr vaqtida bolalar diqqatini ko'chalarning o'tish joylari va yo'laklarning kengligiga va daraxtlarning yo'qon-ingichkaligiga, ularning baland-pastligiga qaratish mumkin.

Taqqoslash uchun oldin katta-kichikligi qar xil predmetlardan foydalaniladi.

Taqqoslash vaqtida narsalar yaxshi ko'rinadigan qilib joylashtiriladi. Masalan: narsalarning qalinligi taqqoslanayotganda ularning pastki tomoni bolalarga qaratiladi (oldin yumaloq, predmetlarning qalinligi taqqoslanadi). Defektolog bolalarga murojaat qilib, savollarni aniq, ifoda qiladi va katta-kichiklik, kenglik-uzunlik kabi so'zlardan foydalanadilar.

Ayrim o'lchamlarni ajratib ko'rsatishda qo'l qarakatlari yordam beradi.

Defektolog bolalardan qaysi predmet uzun (kalta) ekanligini so'rash bilan bir vaqtda qo'lini lenta bo'yilib (chapdan o'ngga) yurgizadi. Kenglikni taqqoslayotib, qo'lini buyumning ko'ndalangi (kengligi) bo'yilib yurgizadi, balandligini taqqoslaganda esa qo'lini buyumning pastdan yuqorisiga, asosdan to yuqori chekkasigacha yurgizadi.

Ko'rsatuv keng qarakatlar bilan amalga oshiriladi, bolalar mazkur belgini buyumdagi boshqa bir buyum chekkalarining birortasi bilan tenglashtirmasliklari uchun u 2-3 marta takrorlanadi.

Buyumni yonma-yon yoki usma-ust qo'yib, uning qalinligi, kengligi va balandligini taqqoslashga o'rgatiladi.

Avval bolalarga buyumlarni yonma-yon qo'yish usulidan foydalanish o'rgatiladi. Chunki bir xil rangli predmetlar taqqoslanadi va ularni ustma-ust qo'yilganda ular qo'shib ketadi.

Defektolog mazkur usullardan qanday qilib to'qri foydalanish kerakligini ko'rsatib beradi. Uzunlikni taqqoslayotganda, buyumlar yonma-yon joylashtiriladi va ularning uchlari bir tomondan 77(yaxshisi chap tomondan) barobar qilib

qo'yiladi: ustiga qo'yishdan foydalanib ularning yuqori va pastki chekkalari qam birlashtiriladi. Agar buyumning uchi chiqib tursa bu predmetni uzunroq deb aytish mumkin. Agar qech qaysi uchi chiqib turmasa, unda buyumlarning uzunligi teng (baravar) deyish mumkin.

Buyumlarning kengligini taqqoslashda ularning yuqori va pastki chekkalari solishtiriladi (tekislanadi), balandligini taqqoslayotganda esa predmetlar bitta tekislik ustiga yonma-yon qo'yiladi.

Ajratilgan belgi aniq so'z bilan ataladi. Defektolog bolalarni predmetlarning qiyosiy katta-kichikligini bildiruvchi uzun-kalta, keng-tor, enli-ensiz kabi so'zlarni aytishga undab: «qaysi lentacha uzun (enli)q», «qaysi lentacha kalta (ensiz)q» - deb so'raydi. U bolalarga javob namunalari beradi, masalan, «qizil lentacha yashil lentachadan enli, yashil lentacha esa qizil lentachadan ensiz». Mana shunday qilib bolalar qar ikkala taqqoslanayotgan predmetlarni atashga o'rgatib boriladi.

Agar bola uzun (kalta), enli (ensiz) so'zlar o'rniga katta kichkina so'zlarini ishlatsa defektolog uning xatosini tuzatadi.

«To'qri, uzunligi (enliligi) jiqatdan katta, uzun (enli)» yoki: «To'qri, uzunligi (enliligi) jiqatdan kichiq kalta (ensiz)» - deb to'qrilaydi.

«Uzunroq, kalta, enli, ensiz nisbatlari qamma vaqt o'zaro boqliq, qolda ishlatiladi, masalan: «qavo rang sharf qiziliga qaraganda ensiz, qizil sharf esa qavo rang sharfdan enli».

Avvalo predmetlarni bir-birining ustiga ko'yish va yonma-yon ko'yish ko'nikmalari sinchiklab mashq qilinadi. Aqli zaif bolalarning yaxshi o'zlashtirishlari uchun defektolog ularga «Bilish uchun nima qilish kerakq», «Sen nima qilayapsanq qanday yonma-yon qo'yyapsan» degan savollarni beradi. Aqli zaif bolalar xotirasining sustligini qisobga olib, mustaqkamlashga katta e'tibor beradi. Buning uchun xilma xil mashqlardan foydalaniladi. Masalan, bolalarga qaysi lenta kalta (ensiz) ekanligiga qarash va uning ustiga o'rdakchani qo'yish, undan keyin qaysi lenta uzun (enli) ekanligiga qarat va uning ustiga ko'p o'rdakcha qo'yish taklif qilinadi. Avval ularga bir xil rangdagi buyumlar beriladi, keyinchalik esa bilimni o'zlashtirishlariga qarab turli xil rangdagi buyumlarni berish mumkin. Bolalar endi buyumlarning katta-kichikligini taqqoslayotganlarida ular bugomning boshqa belgilaridan diqqat e'tiborini chetga tortishga majbur bo'ladilar. Bilimlarni oddiy ravishda umumlashtirishga shu yo'l bilan erishiladi. qarama-qarshi kattalikka ega bo'lgan buyumlarni taqqoslash bolalarni buyumlarning katta-kichikligini qismlarga birmuncha bo'lgan qolda idrok etishga va ularga tegishli ta'riflar («uzun-qisqa», «baland past» va boshqalar) berishga imkon yaratadi.

Aqli zaif bolalarni predmetlarning uzunligi, eni, balandligi jiqatdan tengligi bilan tanishtirish va ularni «uzunligi bir xil» (teng), «eni teng» kabi iboralardan foydalanishga o'rgatish imkoniyati paydo bo'ladi. Nutqi rivojlanib boradi. «Xuddi shunday enlikdagi (uzunlikdagi) lentacha (qalin)ni top» kabi o'yinlar o'tkaziladi (2-3 ta juft ichida tanlash).

Kichik guruqda mashqulotdan tashqari vaqtlarda turli xil didaktik o'yinlar: 3-4 qalqa va sharlardan iborat minorachalar, yiqma o'yinchoqlar (sharchalar, likopchalar, silindrik qutichalar, matreshkalar) bilan o'yinlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Avvalo bolalarga qar biri 3-4 buyumdan, keyinchalik esa 4-5 buyumdan iborat bo'lgan o'yinchoqlar 78beriladi. Shunisi muqimki,

kichkintoylar bu o'yinchoqlar bilan turli xilda shuqullanishlari: o'yinchoqlarga mos qopqoq tanlashlari ulardan qajmi kichrayib, yoki kattalashib boruvchi qator tuzishlar, ularni bir-biri ichiga qo'yishlari mumkin. Defektolog bolalar bilan birga o'ynaydi «o'yinchoqlarni yiqish», «qalqachalardan minoracha yasaymiz», «U erda nimaq». Bu o'yinlar juft-juft bo'lib o'ynash tamoyiliga asoslanadi. Shuning uchun juft o'yinchoqlarning bo'lishi muqim aqamiyatga ega.

Mazkur o'quv yilida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga uzunlikni, kenglikni topa olish va ularni taqqoslash malakalari shakllantirilib boriladi.

Defektolog aqli zaif bolalarga turli kattalikdagi predmetlarni yonma yon va ustma ust qo'yish usullaridan qanday foydalanish kerakligini eslatadi.

Bolalar predmetlarning katta-kichikligini ko'z bilan chamalab, ularni yonma-yon qo'yib o'z taxminlari qanchalik to'g'ri ekanligini tekshiradilar.

Ular nutqida faqatgina buyum o'lchamlari nisbatlari («uzunroq-qisqaroq» va boshqalar) emas, balki u nisbatlarini aniqlash usullari qam o'z aksini topishi kerak. Bolalarga quyidagi savollarni berish foydali: «qaysi lentacha enliroqligini qanday bilish mumkin? Ularni qanday qilib yonma-yon qo'yish kerak? qavo rang sharfcha oq sharfchaga qaraganda enliroq ekanligini qanday bilsa bo'ladi» va qakozolar. Bolalar tegishli taxminiy qarakatlardan birmuncha ongli ravishda foydalanadilar.

O'rta guruqda bolalarni birdaniga 2 o'lchovni - uzunlik va kenglikni ko'rib chiqib, predmetlar o'lchamini taqqoslashga va taqmin qilishga o'rgatishga birinchi marta kirisha boshlanadi.

O'rta guruqda buyumlarning uzunligi va kengligini taqqoslash bilan cheklanadi. Uzunlik yoki kenglik bir biridan faqat uzunligi yoki kengligi bilan farq qiladigan qar xil katta-kichiklikka ega bo'lgan 2 buyumni taqqoslash natijasida aniqlanadi. Masalan, defektolog bolalarga ikki xil rangli va uzunligi turlicha xil, ammo kengligi (eni) bir xil bo'lgan lentalar beriladi, va bolalarga tanish usul bilan qaysi lenta uzun, qaysi lenta qisqa ekanligini topish beriladi. Bu ishni amlga oshirishda qarakat analizatoridan keng foydalanish, masalan, buyumlarning uzunligini taqqoslashda ko'lni ularning bo'yi bo'ylab yurgizish, kengligini taqqoslashda kundalangiga balandligini taqqoslashda esa buyum ostidan to yuqori chekkigacha, ya'ni ko'lni pastdan yuqoriga yurgazishni taklif qilish zarur. Bolalar diqqati barmoq (qo'l) qaysi buyum bo'ylab-uzun buyum bo'yichami yoki qisqa buyumi bo'yicha «Uzoqroq yuguradi» ana shunga jalb etiladi. Bolalar qo'llarini ikki tomonga yozib yoki barmoqlarni kerib buyumning uzunligi (kengligi va q.k.) qanday ekanligini ko'rsatadilar. Defektolog ularning diqqatini qo'llari yoki barmoqlar orasining ochilish darajasiga: katta ochilganligiga, ozgina, sal-pal ochilganligiga jalb etadi. qarakat analizatoridan foydalanish bolalarning buyumlar o'lchamini aniqroq idrok etishlariga xizmat qiladi. Shuni esda tutish kerakki, aqli zaif bolalarning mayda qo'l muskul qarakatlarining rivojlanmaganligi sababli xatolarga yo'l qo'yadilar. Bunday bolalar bilan yakka tartibda ishlash zarur. Bolalar predmetlarning uzunligi va kengligini taqqoslaydilar, kengligi teng, lekin uzunligi qar xil predmetlarni, uzunligi teng bo'lsa qam kengligi teng bo'lmagan buyumlarni, uzunligi va kengligi teng buyumlarni topadilar. Bolalar 2 ta buyumning o'lchami (uzunligi, kengligi, balandligi)ni taqqoslashni o'rganib olganlaridan so'ng 3 ta buyumning o'lchami o'rtasidagi nisbatni aniqlashni mashq qilishga o'tadilar. Bolalar buyumlarni uzunligi kengligi, balandligi, qalinligi, va niqoyat, umuman qajmi ortib yoki 79kamayib borishiga qarab bir qatorga

terishni o'rganadilar.

Avval bolalar tartibga keltirilgan qator namunasiga qarab 3 ta buyumni teradilar. Keyinchalik esa ular qoidaga muvofiq qarakat qilishni o'rganadilar. Bolalar, masalan, buyumlarning qar gal eng uzunini tanlab olib buyumlarni eng uzunidan boshlab tartib bilan qator qilib terib borish mumkinligini bilib oladilar. Eng uzun (qisqa) deb tanlab olingan buyum uning oldidagi qatorga joylashtirilgan buyumdan kaltaroq (uzunroq bo'lib chiqqanligiga doim bolalar e'tibori jalb etiladi. Bolalar qar bir buyumni uning bevosita oldida va orqasida turgan buyumlar bilan juftlab taqqoslab qurishlari kerak («qizil silindr, qavo rang silindrdan balandroq. qizil silindr sariq rangli silindrdan pastroq»)- Shu asos ular predmetlarning o'lchamiga beriladigan baqo nisbiy qarakterga ega ekanligini tushunib olishni o'rganadilar.

Katta guruqda bolalar birinchi o'rinda (uzunlik kenglik balandlik)ni bilishlari va predmetlar o'lchovini 2-3 o'lchov nuqtai nazaridan baqolay bilishlari zarur. Berilgan kattaliklarni aniqlashda buyumlarni taqqoslash mashqlari qo'llaniladi. Bitta o'lchovi bilan farq qiluvchi predmetlarni taqqoslashdan bolalar 2-3 o'lchov bilan farq qiluvchi predmetlarni taqqoslashga o'tadilar («qaysi taxtacha uzunroq; (qisqaroq)q qaysi biri kengroq (torroq)q qaysinisi yo'qonroq; (ingichkaroq)q»). Taklif qilinadigan predmetlar doirasi ortib boradi. Bolalar o'z faoliyatlarida muntazam uchratib turadigan qar xil predmetlar (lentalar, sharflar, arqamchilar, shnur iplar, changilar, qutichalar va q. k.) dan foydalanadilar.

Kattaligini taqqoslash ayrim olingan qolda amalga oshirilmaydi, balki buyumlarning boshqa xossalarini (bajaradigan vazifasi, uzunligi, qalinligi, balandligi va boshqalarni) ko'rib chiqish bilan birgalikda bajariladi. Bu aqli zaif bolalar aqliy qobiliyatining o'sishida muqim aqamiyatga egadir.

Predmet o'lchamlarini o'zgartirishni o'z ichiga oluvchi mashqlar ayniqsa foydalidir. Ayniqsa bu mashqlarning 2 turi qo'llaniladi: umumiy massasi saqlangan qolda ob'ektning ayrim o'lchovlarini o'zgartirish qamda predmetlar o'lchamini tenglashtirish.

Bolalar ayrim o'lchamlar o'zgartirilganda, ularning massasi butun qolicha saqlangan qolda, bir o'lchamning o'zgarishi bilan boshqa o'lchamlarning xam o'zgarishini ko'radilar. Masalan, plastilindan qilingan xodachani uzunroq qiladilar, buning qisobiga u ingichkaroq bo'ladi. Bu mashq bolalarning ayrim o'lchamlarini farq qilish qobiliyatlari o'sishiga yordam beradi.

Katta guruqda ayrim o'lchamli (uzunligi, kengligi va xokazolar bo'yicha) buyumlarni guruqlarga ajratish va tartibga keltirish mashqlariga aloqida e'tibor beriladi.

Bolalar buyumlarni uzunligiga ko'ra guruqlarga ajratayotganlarida ularning balandligi va kengligiga qaramay bir xil uzunlikdagi buyumlarning qammasini bir guruqga kiritadilar. Bolalar bir guruqga kiritilgan buyumlar nimasi bilan bir-biriga o'xshashi va farq qilishini, nima uchun qar xil balandlikdagi buyumlar bir guruqga kiritilganligi va qokazolarni tushunib oladilar. Bolalar buyumlar o'rnining qanday belgilari bo'yicha taqkoslanishi va qatorlarga tartib bo'yicha joylashtirilishiga qarab ularning o'rni boshqalari o'rtasida qanday o'zgarishini ko'radilar. Masalan, leptalarning eng uzunidan boshlab eng qisqasigacha bir qator qilib qo'yilganda qizil rangdagi lenta birinchi o'rinda edi, lentalarni kengligi bo'yicha qo'yilganlanda esa u uchinchi o'ringa tushib qoladi.

Asta-sekin bolalarga buyumlarning 80taqqoslash mumkin bo'lgan belgilarini

mustaqil ravishda ajratib ko'rsata olish ko'nikmasi xosil bo'ladi. Ular boshqa belgilariga e'tibor bermay faqat ajratib ko'rsatilgan belgilariga qarab buyumlarni izchillik bilan taqqoslashni o'rganadilar.

Katta guruqda kattaliklar qatorini tuzish mashqlari quyidagi mazmunda murakkablashtirilib boriladi: ko'p sondagi buyumlar taqkoslanadi; qator qilib qo'yish mashqlariga ayrim buyumlar emas, balki 2-3 o'lchami bilan bir-biridan farq qiladigan buyumlardan foydalanadi. Aynan bir buyumlar qatorlarga goq bir, goq ikkichi belgisi (masalan, silindrlar avvalo balandligi bo'yicha, so'ngra yo'qonligi bo'yicha qo'yiladi) qarab joylashtiriladi.

Bolalar matematika mashqulotlarida shakl jiqatidan bir-birga yaqin shakllar (doira va oval bilan chegaralangan shakllar) modelini farq qilishni idrok etiladigan shakllarni elementar tarzda taqlil qilishni, ularning ba'zi bir qossalarini ajratib ko'rsatish va tasvirlashni o'rganadilar. Bolalarni qar xil ko'rinishdagi uchburchaklar, oval shaklidagi shakllar bilan tinishtiriladi, shakl bo'yicha o'zgarishlarni ko'rish, o'xshash shakllarni topishga o'rgatiladi. Bolalarni asta-sekin shakllarni tekshirish va tavsiflashga, uning geometrik namunaga o'xshash va farq qiladigan tomonini topishga o'rgatib boriladi. Shakl qaqidagi tushuncha faqat mashqulotlardagina o'stirib borilmaydi. Didaktik o'yinlarni qo'llash muqim aqamiyatga ega. Muayyan ish tizimiga didaktik o'yinlar organik jiqatdan (uzviy suratda) kiritiladi. Didaktik o'yinlar bolalarning faqat shakl qaqidagi tasavvurlarini aniqlab va mustaqkamlabgina qolmay, balki ularning ana shu tasavvurlarini boyitadi qam (matryoshka oldinda edi; bola burilgan edi, u uning o'ng tomonida bo'lib qoldi va q.k.) aniqlashga oid mashqlar beriladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Kichik guruqda kattalik tushunchalarini shakllantirish bo'yicha ishlar jarayonini so'zlab bering.
2. O'rta kattalik tushunchalarini shakllantirish bo'yicha qanday ishlar olib boriladi q
3. Katta guruqda kattalik tushunchalarini shakllantirish bo'yicha ishlar jarayonini so'zlab bering,
4. Tayyorlov guruqda kattalik tushunchalarini shakllantirish buyicha olib boriladigan ishlar qaqida aytib bering.

Tayanch tushunchalar:

Kattalik – buyumlarning o'lchami ustida ishlash.

5 § Vaqt tasavvurlarini shakllantirish

Reja

1. Kichik guruqda vaqt tasavvurlarini shakllantirish
2. O'rta guruqda vaqt tasavvurlarini shakllantirish
3. Katta guruqda vaqt tasavvurlarini shakllantirish
4. Tayyorlov guruqda vaqt tasavvurlarini shakllantirish

1. Formirovanie elementarnõx matematicheskix predstavleniy u umstvenno otstalo`x doshkolnikov. Defektolgiya. 1973 g.

2. Venger L.A. Plyugina E.G. Venger N.B. Vospitanie sensornoy kulturo` rebenka. Moskva. Prosveshenie. 1988 g.

3. Davidova S.I. Vo`polnenie

81umstvenno otstalo`mi doshkolnikami

zadaniy po podrajaniyu, obrazu i rechevoy instruksii. Defektologiya. 1973 g.

Kichik guruqda bolalarning kunduzi, kechasi kabi vaqt oraliqlari qaqdagi tasavvuri aniqlanadi. Sutka qismlarini kichkintoylar o'z faoliyatlari mazmunining uzgarishiga qam shu vaqt oraligida o'z atroflarida bulgan katta yoshdagi kishilar faoliyatiga qarab farq qiladilar.

Aniq kundalik tartib, bolalarning uyqudan turishi, ertalabki gimnastika, nopushta, mashqulot vaqtlari qat'iy belgilab quyilganligi va qokazolar sutkaning bo'laklari qaqida tasavvur xosil qilish uchun real sharoitlar yaratadi.

Pedagog vaqt bo'lagining nomini aytadi va bolalarning shu vaqtga mos bo'lgan faoliyat turlarini sanab chiqdi. «qozir ertalab, biz gimnastika qildik, yuvindik endi esa nonushta qilamiz». Yoki «Biz allaqachon nopushta qilib bo'ldik shuqullannib qam bo'ldik. qozir kunduz kun. Tez orada tushki ovqatni eymiz».

Masalan, boladan quyidagilar so'raladi: «qozir ertalab. Sen erta bilan nima qilasanq» va shu kabilar.

Kun davomida bolalar bilan birgalikda sutka bo'laklaridan kunduzi va kechasi bolalar va kattalarning faoliyati va tabiat qodisalari tasvirlanadigan rasmlar ko'rib chiqiladi.

Maktabgacha yoshdagi aqdi zaif bolalar vaqt o'lchov birliklari qaqida aniq tasavvurga ega emaslar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning ayrimlari sutka bo'laklarini almashtirib yuboradilar, ya'ni kundan so'ng darrov tun keladi, tundan keyin bo'lsa, kun boshlanadi, deb qisoblaydilar. Shuning uchun sutka bo'laklarining tartibini qamda ularning o'rni almashishini ko'rgazmalarda va didaktik materiallarda ko'rsatish va mustaxkamlash muqimdir. Buning uchun sutka soatidan foydalansh mumkin.

Kunduzi, kechasi bitta umumlashtirilgan so'z bilan sutka deb atalishiga o'rganib boradilar.

Kichik guruqdagi singari, o'rta guruqda qam vaqtni bilish bolalarning asosan, kundalik qayotida o'stirib boriladi. Muqimi bu o'rgatishning puxta qissiyot asosida amalga oshirilishidir.

Pedagog sutka qismlarining nomini bolalar va ularga yaqin katta yoshli kishilarning kunduzi, kechasi nima qilishlari bilan boqlab, bolalarning sutka qismlari qaqidagi tasavvurlarini aniqlaydi. Shu bilan birga sutka bo'laklaridan yana biri ertalab qaqida tushuncha beradi. Bunda "sutka soatidan" foydalaniladi, unga "ertalab" tushunchasi qam kiritiladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar yil fasllarining nomini, qar bir yil fasliga xos bo'lgan tabiatdagi va ob-qavodagi o'zgarishlarni bilsalar-da, biroq o'z bilimlarida qo'llay olmaydilar. Masalan: "qozir qaysi fasl" degan savolga "Kecha baqor edi, qammayoq erib ketgan edi. Bugun yana qish keldi. qor yoqdi. qattiq sovuq" deb javob beradilar.

Shuningdek yil fasllarini ketma-ketlikda aytib berishda xam qiyinchiliklarga duch keladilar. Masalan: "qish, kuz, baqor, yoz" deb ularning ketma-ketligini aralashtirib yuboradilar.

Ba'zi maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar yil fasllarining asosiy belgilarini xam aytib bera olmaydilar, faqat nomi bilan kifoyalanadilar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga o'rta guruqda tabiatni kuzatish asosida kuz, qish, yoz fasllarining asosiy 82belgilarini farqlash, ularning nomlarini

nutqdarida qo'llashga o'rgatiladi.

Bolalarning sutka qaqidagi tasavvurlarini aniqlash maqsadida ular bilan suqbat olib boriladi. Suqbat taxminan mana bunday o'tkazilishi mumkin: avval defektolog bolalardan ular bolalar boqchasiga kelishdan oldin nima ish qilganliklarini, ertalab bolalar boqchasida nima qilganliklarini, bolalar boqchasida kunduzi nima qilishlarini gapirib berishlarini so'raydi. U bolalarning sutkaning qar bir qismida nima

qilayotganliklarini aniqlaydi va umumlashtiradi. U suqbat oxirida ertalab, kunduzi, kechasi bular sutkaning qismlari ekanligini aytadi.

Tez-sekin so'zlarining ma'nosi aniq misollar bilan ochib beriladi. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'yin davomida ular bajarayotgan xarakatlarning tezlik darajasiga jalb etadi ("Poezd sekin yuryapti, keyin borgan sari tezroq va tezroq yura boshladi"). Keyinish vaqtida u tez kiyinayotganlarni maqtaydi, imillab kiyingan bolalarni aybsitadi, sayr vaqtida yayov yurgan kishi bilan velosipedchining, avtomobil bilan poezdning, qurt bilan qo'ngizning qarakat tezligini taqkoslaydi.

O'quv yilning boshida katta guruq bolalarida ertalab, kunduzi, kechasi kabi vaqt qismlari qaqida tasavvurlar mustaxkamlanib qamda chuqurlashtirib boriladi. Sutka qismlarini faqat bolalar faoliyatining konkret mazmuni va ular atrofidagi kattalar biladigan emas, balki vaqtning ob'ektivroq ko'rsatkichlari - tabiat qodisalari (ertalab quyosh chiqadi, kun yorishadi va qakazo) bilan boqlaydi.

Pedagog bolalar bilan ular va ular atrofidagi kattalar kun davomida nima qiladilar ularni qanday izchillikda, qachon bajaradilar, ertalab kunduzi, kechasi qaqidagi taassurotlari to'qrisida suqbatlashadi va vaqt tushunchasi qaqida ma'lumotlar beradi. "sutka soati"ga yana bitta tun tushunchasi kiritiladi.

U bolalarga tegishli she'r va qikoyalarni o'qib beradi. Ko'rsatma materiallar sifatida bolalarning kun davomida xilma-xil faoliyat turlari aks ettirilgan rasmlardan va fotosuratlardan foydalaniladi: o'rin-ko'rpalarni yiqish, ertalabki gimnastika, yuviiish, ertalabki nonushta va qokazolar. Sutka qismlari qaqida tasavvurlarni aniqlashda didaktik o'yinlar, masalan, "Biznig kun" o'yini yordam beradi.

Bolalar "Aksi" (teskarisi) o'yinini juda yaxshi qo'radilar. Tarbiyachi vaqt mazmuni bilan boshq bo'lgan so'zni aytadi, bolalar esa kunning boshqa vaqtini belgilovchi so'zni, odatda qarama-qarshi mazmundagi so'zni aytadilar. Masalan, ertalab-kechqurun, kunduzi-tun oz-ko'p va boshqalar.

Mashgulotlardan birida bolalar odamlar so'zlashuvda ishlatadigan kun so'zi biri ikkinchisi bilan almashinib turishini bilib oladilar. Shunday kunlardan ettitasi bir qaftani tashkil etadi. qaftaning qar bir kuni o'z nomiga ega. qafta ko'plarining izchiligi qar doim birdek: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba.

Bolalar qafta kunlarining nomini faoliyatining aniq mazmuni bilan boqlaydilar (chorshanba kunlari bizda matematika va fizkultura mashqulotlari bo'ladi).

Endilikda bolalar qar kuni ertalab qafta kunlarining nomini, shuningdek kecha qaftaning qaysi kuni, ertaga qaysi kuni ekanligini aytadilar.

Matematika mashqulotlarida vaqt-vaqti bilan bolalarga qafta kunlarini tartibi bilan aytish taklif etiladi. Aytilgan kundan oldin va keyin qanday kun kelishini aytish.

Pedagog: "qaysi kunlari rasm chizish mashqulotiq Muzika mashquloti-chiq Chorshanba kuni qaerga borgan edik" 83kabi savollarni almashtirib turadi.

Bolalar tartib bilan sanashni, qafta kunlarini tartib bilan aytishni o'rganib" olganlaridan keyin kunni tartib nomeri bilan boqlaydilar.

qafta kunlarining izchilligi qaqidagi bilimlarni mustaxkamlash uchun "qafta kunlari" so'zli didaktik o'yindan foydalanish mumkin.

qafta kunlarining almashinishini kuzatib borish bolalarda takroriy vaqtning o'zgaruvchanligi qaqida tushuncha qosil bo'lishiga, uning xarakat mazmunini: kun ketidan kun, qafta ketidan qafta kelishini ochib berishga imkon yaratadi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga to'rt faslning asosiy belgilari bo'yicha topishga va ularni o'z nutqlarida qo'llashga o'rgatildi. Buning uchun bolalarga "Bu qaysi fasl" "Fasllarni nomla" kabi didaktik o'yinlar taklif qilinadi.

Kichik guruqdan boshlab bolalar vaqtni muljal olishga o'rgatib boriladi. Katta guruqda ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi, qafta kabi vaqt muddatlari daqidagi bilimlar mustadkamlanadi, bolalar esa ularning nomlarini eslab qoladilar.

Vaqt etalonlarini bilish, vaqt munosabatlarini aniqlay bilish bolalarga sodir bo'lgan voqealarni, ular o'rtasidagi sabab-oqibatlarining izchilligini tushunib olishga yordam beradi.

Vaqtни orientatsiya qila bilish - mustaqkam qis etish asosida, ya'ni vaqt muddatini xilma-xil faoliyatni amalga oshirish bilai boqliq qolda xilma-xil emotsional ko'rinish, shuningdek tabiat qodisalarini, ijtimoiy qayot voqealarini kuzatishni aks etish asosida amalga oshirilishi kerak.

Bolalar vaqt o'lchovlari nomini nutqlarida qanchalik ko'p ishlatsalar shunchalik katta aqamiyat kasb etadi.

Sutka qismlari va ularning davom etish muddati qaqidagi bilimlarni mustaxkamlash davom ettiriladi. O'quv yilining boshida bolalar va kattalar kun davomida qachon va qanday izchillikda, qanday ishlar bilan shuqullanishlarini aniqlab olish zarur. Pedagog "Bizning kun" o'yinini o'ynashni taklif etadi. Bolalar qar xil kasbdagi kishilar meqnati bilan tanishtirib borish, ularga bu kishilarning sutkaning qaysi davrida ishlashlarini aytish foydalidir. Buning uchun bolalarping bevosita kuzatishidan, kitob o'qishdan, shuningdek: "Kim kunduz kuni ishlaydiq", "Kechqurungi sayr", "Tungi sayr" didaktik o'yinlaridan foydalanish mumkin. Bu o'yinni o'ynayotib bolalar tegishli mazmundagi rasmlarni tanlaydilar yoki kim sutkaning ma'lum soatida: ertalab, kunduzi, kechqurun, tunda ishlashini aytib beradilar.

"Sutka soati" dan tashqari yana sutka bo'laklarini aniqlash uchun qar xil rangdagi doirachalardan belgilar sifatida foydalanish mumkin. Avval bolalarning sutka qismlarining ketma-ketligi qaqidagi bilimlari aniqlashtirib olinadi.

Shundan so'ng doirachalar ko'rsatiladi va ular bilan ertalab, kechqurun, kun va kechasini belgilash mumkinligi aytiladi.

Oq doiracha kunduzni bildiradi. qora doiracha tunni bildiradi. Kechasi qoronqu bo'ladi. Sariq doiracha ertalabni bildiradi. Ertalab quyosh chiqadi. Ko'k doiracha kechqurunni bildiradi.

Doirachalarni ushbu tartibda joylashtiradi.

Sariq, oq, ko'k va qora doirachalar rangini aytish va ular nimani bildirishini tushuntirib berishni so'raydi.

Shunday doirachalar qamma bolalarga beriladi. Ko'rsatmaga binoan, ular kunduzni, tunni, ertalabni, kechqurunni bildiruvchi doirachalarni ko'rsatishadi. Sutka bo'lakchalarining ketma-ketligini bilishga o'rgatishda qar xil rangdagi doirachalardan foydalaniladi. Bolalarga 84qar qaysi doirachaning rangi nimani

bildirishini eslatib olinib, rangi bo'yicha sariq, oq, ko'k, qora tartibida joylashtiriladi.

Ular ni nomlab beradilar. Doirachalar sutka qismlarining ramzidan foydalanib, bolalar qaysi qismlardan xoqlashsa, o'sha qismdan boshlab sutkaning qamma qismini tartib bilan aytib chiqadilar.

Sutka bo'laklarini anglatuvchi ramziy belgilar.

Ertalab kunduzi kechqurun tun.

qafta kunlarining nomlarini ay tishda qiynaladilar. Kunlarining nomini bir-biriga almashtirib yuboradilar. Ular ni ma'lum izchillikda ay tib bera olmadilar. Ba'zi bolalar kunlarning nomlarini mexanik tarzda yodlab oldilar.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar qafta kunlarini bir tekisda ay tib bera olmadilar. Ular faqat yakshanba, shanba, dushanbani yaxshi eslab ay tib berdilar.

Chunki yakshanba xursandchiliklar bo'ladigan kun, yaqinlari bilan, ya'ni ota-ona, buvi va boshqalar bilan birga bo'ladigan kun. Bu kun yana shunisi bilan ajralib turadiki, ba'zida bolalar qayotining odatdagi tartibi o'zgaradi: buvisining uyida tushlik qilish, meqmonlar kelishi va qokazo.

Bolalar dushanbani qam yaxshi biladilar, chunki shu kuni ular, yakshanbadan keyin boqchada bo'lishlarining birinchi kunidir. Seshanba, payshanba, juma kunlari aloqida aqamiyatli voqealar bilan belgilanmagan. Shuning uchun qaftaning bu kunlarini maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar ay tib bera olmadilar.

